

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OILY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND
DAVLAT UNIVERSITETI
TARIX-FALSAFA FAKULTETI
IJTIMOIY ISH YO'NALISHI
SOTSILOGIYA VA IJTIMOY ISH KAFEDRASI**

**OILA XO'JALAGINI IJTIMOYIY IQTISODIY MOHIYATI VA UNING
TADQIQ ETISHNING NAZARIY ASOSLARI.
MALAKAVIY BITIRUV ISHI**

Bajaruvchi: Usmonova K.

Ilmiy rahbar: ass. Tangirova M

**Malakaviy bitiruv ishi Sotsiologiya va ijtimoiy ish kafedrasida bajarildi.
Kafedraning 2011 yil ___ ___dagi majlisida muhokama qilindi va himoyaga
tavsiya etildi (bayyonnoma № ___).**

Kafedra mudiri:

dots.Jo'rayev L.N.

**Malakaviy bitiruv ishi YaDAKning 2011 yil ___ ___dagi majlisida
himoya qilindi va ___ foizga baholandi (bayyonnoma № ___).**

Samarqand – 2011.

**Mavzu: OILA XO'JALAGINI IJTIMOIIY IQTISODIY MOHIYATI VA
UNING TADQIQ ETISHNING NAZARIY ASOSLARI.**

Reja:

Kirish.

I Bob. OILA XO'JALIGINING ILMIIY-NAZARIY ASOSLARI.

- I. 1. Oila xo'jaligi tushunchasi, uning mazmun mohiyati.
- I. 2. Oila xo'jaligini paydo bo'lishi va taraqqiy etishining o'ziga xos xususiyatlari.

**II Bob. OILA XO'JALIGINI IJTIMOIIY-IQTISODIY MOHIYATI VA
UNING TADQIQ ETISHNING NAZARIY ASOSLARI.**

- II. 1. Oila xo'jaligining ijtimoiy - iqtisodiy mohiyati.
- II. 2. Oila xo'jaligini ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan shakllantirish jamiyat taraqqiyotining muhim omili.

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

MUNDARIJA

Kirish.....3-5

I Bob. OILA XO'JALIGINING ILMIIY-NAZARIY ASOSLARI.

II. 1. Oila xo'jaligi tushunchasi, uning mazmun mohiyati.....7-22
I. 2. Oila xo'jaligini paydo bo'lishi va taraqqiy etishining o'ziga xos xususiyatlari.....23-34

II Bob. OILA XO'JALIGINI IJTIMOIIY-IQTISODIIY MOHIYATI VA UNING TADQIQ ETISHNING NAZARIY ASOSLARI.

II. 1. Oila xo'jaligining ijtimoiy - iqtisodiy mohiyati.....35-45
II. 2.Oila xo'jaligini ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan shakllantirish jamiyat taraqqiyotining muhim omili.....46-60

XULOSA.....61-64

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....65-66

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi: O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, o'ziga xos bo'lgan taraqqiyot yo'lini bosib o'tmoqda va bugungi kunda jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish muhim vazifalardan biri ekanligi ta'kidlanmoqda. Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov ta'kidlab o'tganidek: "Xalqning ma'naviyati va madaniyati, uning haqiqiy tarixi va o'ziga xosligi qayta tiklanayotganligi jamiyatimizni yangilash va taraqqiyot ettirish yo'lidan muvaffaqiyatli ravishda olg'a siljitishda hal qiluvchi, ta'bir joiz bo'lsa, belgilovchi ahamiyatga egadir. Yuksak madaniyatni esa, chuqur ichki ma'naviyatga ega bo'lgan xalq yaratadi. Ana shu xalqgina buyuk yaratuvchilik qudratiga ega bo'ladi"¹.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi: Bugungi o'z-o'zini boshqarish, ya'ni mahallalar tizimida oila jamiyatning ijtimoiy poydevoridir. Shunga ko'ra, jismoniy sog'lom, ma'nan barkamol, axloqan pok va yuksak madaniyatli yosh avlodni voyaga yetkazish oiladan boshlanadi. Oila hayotning asosiy maqsadi aholini qayta tiklash, bolalar tarbiyasidir. Bolalar tarbiyasining bosh maktabi esa ota-onaning o'zaro munosabatidir. Mana shu oilaviy munosabat madaniyatning takomillashishi yosh avlodning moddiy olam, ijtimoiy hayot haqidagi tasavvurlari, nuqtai nazarlari, tushunchalari, dunyoqarashlari va sharqona odob-axloq qoidalari, ularga rioya etishning to'g'ri yo'lini ko'rsatadi. Yosh avlodning ma'naviy qiyofasi, ularning hatti-harakati, xulq-atvori dastlab oilaviy munosabat madaniyatida boshlanadi. Har bir inson, u katta va kichikligidan qat'i nazar, o'zining his-tuyg'usini, ichki tug'yonini, orzu-umidlarini munosabat jarayonida bayon etadi. Shuning uchun ham jamiyat taraqqiyoti, insonlarning yaxlit holda shakllanishi, ularning bir-birlari bilan bo'ladigan o'zaro munosabatida, hamkorligida, o'zaro ta'sirida vujudga keladi.

¹ Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T., "O'zbekiston" 1996 y.

Malakaviy bitiruv ishining maqsadi: Uzoq asrlardan buyon ajdodlarimiz oilaviy hayotni sog'lom turmush tarzining asosiy qismi deb, oilaviy hayotning muqaddasligini e'tirof etib, oilada farzandlarni hayot gulshani deb, ularni baquvvat, aqlli, odob-andishali qilib o'stirishga katta ahamiyat berishgan. Oila pokligi, ma'naviy madaniyati, uning islom shariati asosida shakllanishi, zo'ravonlik asosiga qurilgan munosabatlarga yo'l qo'ymagan. Farzand tarbiyasi oilaning muqaddas vazifasi bo'lib hisoblangan.

I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "oila bizning xalqimiz uchun millatning ko'p asrlik an'analari va ruhiyatiga mos bo'lgan g'oyat muhim hayotiy qadriyatlardan biridir"¹.

Malakaviy bitiruv ishining vazifalari: Qo'yilgan maqsadga erishish uchun qo'yidagi vazifalarni belgiladim. Ta'kidlangan ushbu qadriyatlar avloddan-avlodga o'tib, sayqalanib, oilaviy munosabatlar madaniyatini takomillashtirishda, yosh avlodni jismonan sog'lom, ma'nan barkamol, axloqan pok etib tarbiyalashda katta ahamiyatga ega bo'lib bordi.

Ammo, sho'rolar tuzumi davrida madaniyatga mafkuraviy yondoshuv hukm surdi. Asrlardan buyon avlodlarimiz tomonidan avaylab-asrab kelingan xalqimiz turmush tarzining tarkibiy qismiga aylanib, qon-qoniga singib ketgan haqiqiy xalqchil urf-odatlar, marosimlar va an'analarning tarbiyaviy ta'siri kamsitilib, Ovro'pa va Rossiya oila, tarbiya modeli targ'ib qilindi, mahallalar o'rni kamsitildi. Tarbiyaviy sohadagi bunday uzluksizlikning uzilishi, respublikamiz tub aholisining o'z milliy qadriyatlaridan jido etilishi ularni ma'naviy qashshoqlashtirdi. Din, xususan islom tarixi, uning madaniyatiga, ta'siri, manbalarni obyektiv yoritishda dunyo ilmidan orqada qolindi. Endilikda dinimiz axloqiy masalalar bilan uzviy bog'liqligi, u axloq-odob, ma'naviyatni boyitishda muhim manba ekanligi namoyon bo'lmoqda.

Malakaviy bitiruv ishining obykti va predmeti: Ijtimoiy hayotimizdagi bunday shovinistik, manqurtlarcha siyosat oilaviy munosabatlarga, oilada

¹ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari, taraqqiyot kafolatlari. T., "O'zbekiston" 1997.

farzandlar tarbiyasiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmay qolmadi. Oilaviy munosabatda ham tushunmovchilik, zo'ravonlik, oqibatsizlik, janjallar kelib chiqishiga sabab bo'ldi. Oiladagi bunday salbiy hodisalar ayrim holatlarda ajralishlar bilan tugallandi. Ayrim noto'liq oilalarda o'sayotgan farzandlar tarbiyasining nomutanosibligi, ular orasida voyaga yetmasdan jinoyat sodir etish hollarining ortib borishi, hududimizdagi iqtisodiy tanglik, ekologik holat, demografik vaziyatning aholi salomatligiga salbiy ta'siri, oilani mustahkamlash, oilaviy munosabatlar madaniyatini takomillashtirishga, insoniyatning keng taraqqiyot oqimiga qo'shilib, umuminsoniy va milliy manfaatlar asosida hal etishni, ayniqsa oilada sog'lom avlodni shakllantirish muammosi mexanizmlarini ishlab chiqishni dolzarb masalaga aylantirdi.

Bugungi mustaqillik kunimizda mahalla tizimida oila va oilaviy munosabatlar masalasi, eng dolzarb bo'lib, prezidentimizning olib borayotgan dono siyosati natijasida oila institutini qayta qurish, milliy urf-odatlar negizidan kelib chiqib, oilaviy tendensiyalarni vujudga keltirish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Zero, ushbu ishlarning barchasi oilalarimizni mustahkamlash borasida olib borilayotgan harakatlaridir. Bu borada ijtimoiy ish xodimining o'rni va vazifasi yaqqol sezilmoqda.

I BOB OILA XO'JALIGINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

I. 1. OILA XO'JALIGI TUSHUNCHASI, UNING MAZMUN MOHIYATI

Ishning maqsadi: Mamlakatimizning iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy hayotida keskin sifat burilishi yuz bermoqda. Mazmunan demokratik va insonparvarlik asosiga qurilayotgan jamiyatning har tomonlama taraqqiyoti shaxsning shu taraqqiyot talablariga moslik darajasi, aqliy, jismoniy va ma'naviy madaniyatlilik saviyasi bilan chambarchas bog'liq. Oilani xo'jaligini ijtimoiy iqtisodiy munosabatlarini ilmiy tadqiq etishni uning jamiyat taraqqiyoti qonunlariga muvofiq rivojlanishini ifodalashdan boshlamog'imiz kerak. Oilaning rivojlanishi jamiyatning moddiy ishlab chiqarishi va ma'naviy hayoti bilan bog'liqdir. Agar ishlab chiqarish, ayriboshlash va iste'mol taraqqiyotining muayyan ijtimoiy tuzumda, unga xos bo'lgan oilani ko'ramiz.

Demak, oila haqidagi ta'limotga ko'ra, oilaning o'ziga xos shakli kishilik jamiyati taraqqiyotning har bir bosqichida uning uning konkret tarixiy ko'rinishida mavjud bo'lgan ijtimoiy tuzum xarakteri bilan belgilanadi. Oila shakllarini o'zgarishi, ibtidoiy jamiyat davridan boshlab barcha tarixiy bosqichlarda moddiy ishlab chiqarish ma'naviyatdagi o'zgarishlar bilan bog'liq ekanligi ilmiy adabiyotlarda keng tahlil etilgan.

Lekin jamiyatning, oilaning moddiy hayot sharoitlari o'zgarishi o'z-o'zidan ma'naviy kamolotga olib kelmaydi. Madaniy qashshoq bo'lgan odam boy bo'lib qolsa, birdaniga ma'naviy kamolot darajasiga ko'tarilib qolmaydi. Oila xo'jaligini ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyotning ta'siri va uning mahsuli bo'lsa ham, u o'z navbatida, ijtimoiy taraqqiyotga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Jamiyatda insonning ma'naviy olami negizida ijtimoiy maqsadlar, qarash va g'oyalar yotadi. Ular ishonch natijasida e'tiqodga, undan ijtimoiy-moddiy kuchga aylanadi. Dunyoqarash moddiylashmas ekan, u ijtimoiy taraqqiyotning borishga ta'sir qila olmaydi. Oila xo'jaligini munosabatar madaniyati, uning yosh avlod madaniy

kamolotiga ta'siri xuddi shu qonunga bo'ysunadi. Jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichi kishilarning ma'naviy kamolotida, jumladan, oilaning madaniy rivojlanishida o'z aksini topadi.

Oilaning xo'jaligini faoliyati, ularning shakllantirish va rivojlantirish omillari ijtimoiy amaliyotga bog'liq holda avlodlardan-avlodlarga o'tib, boyib, takomillashib boradi. Zotan, inson shaxsi va uning madaniy alomining tarkib topishi ham ma'naviyatdir. Oiladagi o'zaro munosabatlar haqida fikr yuritar ekanmiz, ular muayyan ijtimoiy-madaniy tizimni tshkil etishi ko'zga tashlanadi.

Bu tizim oilaning o'ziga xos iqtisodiy olamini tashkil etadi va ijtimoiy tuzilishning zarrasi sifatida bir-biriga ta'sir qiladi hamda o'zaro aloqadorlikda bo'ladi. Unda barqarorlik va o'zgaruvchanlik dialektikasi amal qiladi.

Shaxs ongi, faoliyati, tafakkuri taraqqiyoti uning moddiy va ma'naviy boyliklarga, mavjud turmush tarziga, ijtimoiy va iqtisodiy tuzumga bo'lgan munosabati belgilaydi. Shaxsning avvalo tabiatga, jamiyatga, ijtimoiy va iqtisodiy tuzumga, mavjud turmush tarziga faol munosabati, ularni o'zgartirish va takomillashtirishda qatnashishi insonning o'zini ham o'zgartirib, aqlan kamol topib, dunyoqarashi shakllanib, siyosiy ongi o'sib, barkamollik darajasiga ko'tarilishi uchun imkoniyat yaratadi. Shunday ekan, ijtimoiy taraqqiyot darajasi va talabidan kelib chiqib, tulicha talqin qilinsada, u ijtimoiy tuzum taraqqiyoti bilan uzviy bog'liqdir degan ilmiy asoslangan fikr abadiylikicha qoladi. Zero, jamiyat butun insoniyatni shakl shamoyilini belgilovchi buyuk xilqat bo'lib, insonlarning ma'naviy dunyosini ifodalovchi omildir¹.

Ilmiy manbalarda izohlanishicha, insoniyat ijtimoiy-tarixiy amaliyot jarayonida insoniyat yaratgan va yaratayotgan hamda jamiyat taraqqiyotida tarixan erishilgan bosqichni xarakterlaydigan moddiy va ma'naviy qimmatdorliklar majmuidir.

Bu ta'riflardan ko'rinidaki, jamiyat va inson tarixiy taraqqiyotining muayyan bir darajasi kishilar hayoti va faoliyatining turli ko'rinishlarida,

¹ "Oila" jurnali. №2 son, Toshkent 2005 yil.

shuningdek, ular yaratadigan moddiy va ma'naviy boyliklarda ifodalanadi. Oila xo'jaligi ijtimoiy hayotning rivojlanishi mahsuli bo'lib, ijtimoiy munosabatlarning maxsus o'ziga xos turidir. U ijtimoiy hayotning turli jihatlarini ifodalaydi.

Shunday qilib, oila jamiyatda muhim o'rin egallashi bilan ijtimoiy munosabatlar shaxslararo munosabatni ifodalaydi. Ijtimoiy munosabatlar obyektivdir. Kishilar o'z hohish-irodalariga bog'liq bo'lmagan holda hayotiy maqsadlari va manfaatlari taqazosi bilan o'zaro munosabatga kirishadilar. Ijtimoiy munosabatlar jamiyatning tuzilishini vujudga keltiradi. Shunday qilib, ijtimoiy munosabatlar ijtimoiy hayotning mohiyatini ifodalaydi.

Oila esa odamlarning tabiiy, iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy munosabatlariga asoslangan ijtimoiy birlikdir. Tabiiy munosabatlar deyilganda, jinsiy munosabatlar, bola ko'rish, iqtisodiy munosabatlar deyilganda, mulkiy munosabatlar, uy-ro'zg'or, hovli-joyni boshqarish, huquqiy munosabatlar deyilganda, nikohni davlat tomonidan qayd etish, oila a'zolari o'rtasidagi shaxsiy va mulkiy munosabatlar nazarda tutiladi.

Oilaviy birlikda shaxslar o'rtasida axloqiy, psixologik, jismoniy va xo'jalik-maishiy aloqalar sodir bo'lib, ular hayotda va maqsadlarda umumiylikni vujudga keltiradi.

Oilaviy birlik maxsus va shu bilan birga, murakkab ijtimoiy munosabatlardan iboratdir. Odatda oilaning vujudga kelishiga nikoh asos bo'ladi, shuning uchun oilada bola tug'ilmagan bo'lsa ham nikoh munosabatining o'zi oilani tashkil etadi. Oilada er-xotin bilan birga bolalarning bo'lishi tipik oilani vujudga keltiradi. Ota-onalar va bolalar har taraflama jipslashgan oila birligini tashkil etadi. Ular o'rtasida juda yaqin oilaviy munosabatlar mavjud bo'ladi. Bu shaxslar oilaning yadrosini tashkil etadi.

O'zining ijtimoiy mazmuniga qarab oila, odatda, uch o'zaro aloqadagi ijtimoiy guruh, uning asosi sifatida nikoh, nikohning natijasi sifatida er-xotin munosabatlari. Er-xotin munosabatlarining oqibati sifatida qarzandlardan tashkil topadi.

Shunday qilib, oila xo'jaligi dastlab oila nikoh munosabatlari va oila a'zolari orasidagi o'zaro tabiiy, iqtisodiy, huquqiy va mulkiy munosabatlarni kiritish mumkin. Oilaviy birlikda shaxslar o'rtasidagi aloqalar sodir bo'lib, ular hayotda va maqsadlarda umumiylikni vujudga keltiradi. Oilaviy munosabatlarning shakllanishi jarayoniga e'tibor berar ekanmiz, uning madaniyatini tahlil etgan holda ilmiy-nazariy asoslari yuqorida zikr etilgan munosabatlar asosida shakllanishini guvohi bo'lamiz. Chunki oiladagi muhit, uning ijtimoiy munosabatlar jarayoni, oilaning tuzilishi, ma'naviy holati, oila mentaliteti, odatlaridan kelib chiqishini unutmasligimiz kerak¹.

Oila o'zining tarixi bilan milliy o'zlikni anglash, milliy an'analar, urf-odatlar bilan yashash turmush-tarzi bilan millatlarning bir-biridan farqini bildiradi. Har bir millatning o'z turmush tarzi, ularning oila xo'jaligida aks etadi. Jumladan, o'zbek halqi ham bu narsadan holi emas. Chunki, xalqimizning tarixi, asrlar osha bizgacha yetib kelgan qadriyatlari, oilaviy munosabatlarida ham o'z aksini topgan bo'lib, bugungu mustaqillik kunlarida ham yangicha yondoshish va munosabatlar bilan ilmiy-nazariy jarayonlar bilan boyitilmoqdaki, biz buni har doim, har kuni sezamiz va shukronalar keltiramiz.

Oila eng umumiy tarzda qaralganda, er-xotin munosabati, ota-onalik-farzandlar munosabatlaridan iborat. Bu munosabatlar mazmunida, shubhasiz, tabiiy munosabatlar-jinsin hissiyot, ota-onalik va farzandlik hissi, ya'ni qonqardoshlik munosabatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo bu hissiyotlar tabiiyligicha namoyon bo'lmay, ijtimoiy tarzida namoyon bo'ladi. Shunga ko'ra oila tizimida farqlash mumkin. Bundan tashqari iqtisodiy va huquqiy munosabatlar ham mavjud bo'lib, ular oilani mustahkamlashda muhim mavqeyega ega.

1. Oilaning muhim tarkibiy qismi – oila a'zolari o'rtasidagi iqtisodiy-mulkiy munosabatdir, ya'ni oila turmushini tashkil etishdir. Yuqorida aytganimizdek, jamiyat o'z a'zolari o'rtasidagi tabiiy-biologik, shuningdek, qonqarondoshlik, mulkiy munosabatlarni huquqiy qoidalari bilan boshqaruv boradi.

¹ Ubaydullayeva R.A. Mustakil O'zbekiston: ayol, oila va jamiyat. T.: Fan, 2006.

2. Oiladagi huquqiy munosabatlar oila a'zolarining o'zaro huquqi va majburiyatlari yig'indisidir. U oila hayotining eng muhim tomonlarini tartibga solib turadi hamda eng avvalo jismoniy kuchga – davlat muassasalari kuchiga tayanadi¹.

Barcha ishlar, oilaning o'zaro tuzilmasi uning oldidagi vazifalarni bajarishga bog'liq. Er-xotinning o'zaro hamkorligi, bir-birini tushinib, barcha ziddiyatlarni yaxshilik yo'li bilan hal qilish, barcha oilaning iqtisodiy vazifalarni ijobiy hal etishda omil bo'ladi.

Hozirgi davrda jamiyatda bo'lgani kabi oila, turmushda ham o'ziga xos jarayonlar kechmoqda. Ijtimoiy hayotning muhim sohasi bo'lgan oila, hamda turmush munosabatlari, har bir tarixiy davr, har bir ijtimoiy-iqtisodiy tuzumda o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'ladi. Ularda muayyan tuzumning harakteri, jihatlari, ziddiyatlari, ijtimoiy hayotda ro'y berayotgan jarayonlar o'z aksini topadi. Xuddi shu yo'nalishlarni, oila va turmush muammolarini, ushbu ma'ruzada iloji boricha analiz berishga harakat qilamiz.

Ijtimoiy jamiyatda sosial birliklarning o'zaro osoyishtaligi, stabilligi, sosial jamiyat mustahkamligi va uning aloqalarini, munosabatlarini savod va bilimi darajasini, madaniyatini xalq maorifi-taraqqiyotini siyosiy boshqaruv sistemasini muvofiqlashtirib turadigan vositalarni sosial, ya'ni ijtimoiy institutlar deyiladi. Bular ham tashqi, ham ichki tuzilish strukturasi vazifasi, mohiyati bilan bir-biridan ajralib turadi va o'z harakterlari bilan farq qiladi. Tashqi tuzilishi nuqtai nazaridan sosial institutlar ma'lum yo'nalishda moddiy ta'minlangan, aniq, konkret sosial funksiyalar bajaradigan insonlar – shaxslar mohiyatiga muvofiqlashgan muassasalar qiyofasini eslatish jarayonidir. Yoki aniq, konkret vaziyatda ma'lum shaxslar-sosial gruppalar sistematik-uzluksiz faoliyat ko'rsatadigan standartlashgan obyektini eslatadi va ma'lum mazmunni kashf etadi. Masalan, yustisiya (bu sosial institut bo'lib) tashqi ko'rinishda shaxs mohiyatiga muvofiqlashgan qonunchilikni amalga oshiradigan moddiy vosita yoki muassasa hisoblanadi. Mazmuni jihatidan

¹ Maxmudov R. "Huquq va madaniyat". T., "O'zbekiston" 1994 y.

ichki tuzilishi esa ma'lum standartlashgan huquqiy bilimga ega bo'lgan, huquqiy qonunchilikka muvofiqlashgan va shu sohada sosial funksiyalarni bajaradiga shaxslar uyushmasidir.

Bu sohada ma'lum standartlar sifatida sosial rolni bajaradigan, yustisiya harakteriga muvofiqlashgan shaxslar sistemasidir (sudya, prokuror, advokat va b.).

Sosial institutlar (undan tashqari) sosial faoliyat va sosial munosbatlarni jamiyatda ma'lum sistemaga asoslangan standartlashgan xarakterli xususiyatlarni o'zida ifodalagan, aniq (konkret) vazifalarni jamiyatda bajaradigan sosial uyushma yoki jamoa, muassasa kabi sosial birlikdir.

Sosial institutlar o'z sosial faoliyatlarini amalga oshirish jarayonida o'z standartiga kiradigan shaxslar faoliyatini doimo rag'batlantirib, boshqarib, mazmun berib, uyushtirib, takomillashtirib turuvchi ma'naviy vositadir. Shuning uchun ham bir sosial institutlar faoliyatining maqsadlari, konkret funksiyalari maqsadga erishish yo'llari imkoniyatlari, sosial norma, pozisiyalari va rollari, ularga qarshi harakatlar, zarba beradigan kuch va quvvatlari vositalari mavjudligi bilan harakterlanadi.

Mustaqillik yillarida sosial institutlarning yangi turi, u ham bo'lsa, o'z-o'zini boshqarish jamoa va jamoatchilik institutlari paydo bo'lib, ularni nodavlat tashkiliy muassasalar sifatida jamiyatda eng muhim muammo, masalalarni hal etadi.

Sosial institutlarning eng muhimi jamiyatda, u ham bo'lsa siyosiy hokimiyatni ta'minlaydigan siyosiy institutlar va ularga muvofiqlashgan iqtisodiy institutlar bo'lib, bu institutlar jamiyatda ishlab chiqarish va taqsimot jarayonini va maishiy xizmat va siyosiy boshqaruv sohasini tashkil etadi.

Toshkent Davlat Milliy Universiteti sosiologlari «Umumiy sosiologiya» qo'llanmasida sosial institutlarning qo'yidagi amal qilish doirasi va vazifalarini va sosial institutlarining ko'rinishlarini ko'rsatib beradi.

1. Relyasion institutlar. Bu institutlar jins va yoshdan tortib to mashg'ulot turi va qobiliyati mezonlariga asosan jamiyatning tarkibini (rolga oid) aniqlab boradi;

2. Regulyativ (idora etish) sosial institutlar. Bu institutlar shaxsiy maqsadlarning jamiyatda amal qilib turgan normalariga daxlsiz holda amalga oshish chegaralarini va undan chiqib ketgandan keyin qo'llaniladigan sanksiyalarini (sosial nazoratning hamma mexanizmlari) belgilab beradi;

3. Integrativ (uyg'unlashtiruvchi) sosial institutlar. Bu institutlar bir butun tuzumga jamiyat manfaatlarini qondirishga mas'ul bo'lgan sosial rollarni ifodalaydi.

4. An'anaviy sosial institutlar. Bu sosial institutlar odat, marosimlar va qarindosh-urug'chilik tomonidan qat'iy belgilangan normalar bilan bog'liqdir.

5. Madaniy sosial institut. Din, san'at, adabiyot bilan bog'liq sohalardir.

Shu bilan birga o'quv qo'llanma mualliflari sosiologiyada institusional sosiologiyada sosial institutlarning bajaradigan vazifalarini qo'yidagicha ko'rsatib beradi.

a) jamiyat a'zolarini takror ishlab chiqarish va qaytadan tiklash (bunda oila ko'zda tutilgan bo'lsa kerak – A.Sh.);

b) sosializasiya (individda ijtimoiy ahamiyatli bo'lgan qadriyat va normalarni yetkazishning turli xil shakllari, bu albatta ma'naviy merosni ko'zda tutgan bo'lishi mumkin – A.Sh.);

v) ishlab chiqarish va taqsimot (bu iqtisodiy jarayonni ko'zda tutgan – A.Sh.);

g) tartibga rioya qilish va axloqni saqlab turish. («Umumiy sosiologiya», Toshkent 1999 yil, 75-bet) kabi sohalarni ko'rsatib bergn. Albatta bu ko'rsatishlar bir tomonlama ahamiyatga egadir.

Sosial institutlarning eng muhimi, bu jamiyatda oila bo'lib, uning faoliyati asosan ota-onalar o'rtasida, ota-onalar farzandlar o'rtasidagi munosabatlar va tarbiya (metodlar) uslublari muammolari bo'lib, ularning natijasi jamiyat uchun qimmatli bo'lib, sosial jamiyatning huquqiy norma va qadriyatlarini, axloq-ma'naviyatini aniqlab beradi.

Ulardan tashqari sosial institutlar ichida jamiyatda sosial funksiyalar bajaradigan sosial-madaniy institutlar bo'lib, ularga xalq maorifi, Oliy ta'lim,

sog'liqni saqlash, madaniy-tarbiyaviy muassasalar, fan-texnika, diniy muassasalar va boshqa sistemalar kiradi.

Sosial institutlar sosial muhit bilan uzviy aloqada bo'lib, sosial jamiyatni vujudga keltiradi va rivojlantiradi. Bu munosabatlar normal holatda yuz bersa, jamiyat rivojlanishi ham normal holatda taraqqiy etadi yoki bu normal holatda bo'lmay, buzilsa aksincha inqilobiy sosial vaziyat yuz beradi.

Sosial institutlarning jamiyatdagi sosial muhitdagi o'zaro aloqalari eng muhim funksiyani – konkret sosial ehtiyojlarini qondirishdir.

Jamiyatda bu jarayon, ya'ni konkret sosial ehtiyojlar doimo, nafaqat personlashgan shaxsning hatto yoki sosial gruppada, qatlamlar, sinflar o'rtasida ham o'zgarib turadi. Bu jamiyatga ham ta'sir etib turadi. Sosial institutlarda ikki holat muhim rol o'ynaydi.

1. Disfunksiya
2. Depersonasiya

Ulardan a) sosial institutlarning jamiyat manfaatlariga muvofiqlashmagan faoliyatlari jamiyatda disfunksiya holatini vujudga keltiradi va u sohani disfunksiya deyiladi.

(Disfunksiya – faoliyatsizlanish degan ma'noni beradi, bu jamiyat uchun zararli sohadir).

Bu holat jamiyatda ham tashqi, ham ichki (tashkiliy) holatda mazmunda yuz berish mumkin.

I. Sosial institutlarning disfunksiya jarayonining tashqi holatda yuz berishi, bu ko'pincha kadrlar orqali, moddiy vositalar va:

- 1) tashkiliy tartibsizlik;
- 2) ishqollik – kelishmovchilik; janjallik – niqof;

3) nizolik va ixtiloflik kabi uchta holatda yuz beradi. Bu esa jamiyatni tashqaridan buzilishiga olib keladi. (Shu sababli jonkuyar kadrlar, kuchli intizom, stabil moddiy holat kerak).

II. Ichki holatda- mazmunli holat sosial holatlarning disfunksiyalashuvining yuz berishi eng xavfli va muhim bo'lib, u maqsadsiz faoliyatlarning (hozirgidek

go'yo hych maqsad yo'q), noaniq funksiyalar-vazifalar, sosial qiyofasining, obru-e'tiborining jamiyat a'zolari oldida tushib ketishidir.

Sosial institutlar faoliyatining noaniqligi sosial ehtiyojlar harakterini yo'qotadi, hizmat faoliyati ahamiyati yo'qoladi, faqat simvolik, namoyishkorona xizmat holati figuraga o'xshab muallak bo'lib qoladi.

Disfunksiyalashishning bu sosial institutlarda depersonizasiyalashuvi oqibatida ham yuz beradi. (Shaxslashtirish jarayonining buzilishidir). Bu degan so'z butun sosial institutlarning butun sosial funksiyalarining (rahbarlik asosan yuqoridan qo'yigacha) bajarilishini shaxs sifatiga qaramasdan, ularning jamiyatga sodiqligini hisobga olmasdan kim to'g'ri kelsa qabul qilish va ularga sosial institutlar-jamiyat taqdirini mas'uliyatsiz shaxslarga topshirib qo'yish oqibatida yuz beradi va jamiyatni to'liq inqirozga olib keladi, hamma joyda poraxo'rlik, ifloslik, olib sotarlik, o'g'rilik, yashirin mafiya yuz beradi, jinoyatchilik-korrupsiya kuchayadi. Oqibatda sosial institutlar faoliyat ko'rsatishdan to'xtaydi. (Oila bo'lsa tugaydi). Bu holatning belgilari tezda sezila boradi, dastlab jinoyatchilar boshqaruv apparatlaridan joy olib boradi va bu prosess tezlashadi, ana shu vaqtda oldini olish mumkin. Bu holatlar oldi olinmasa, sosial institutlarda shaxslashtirish boshlanmasa, sosial buzilishga-sosial inqiroz, keyin inqilobga yoki siyosiy davlat to'ntarilishiga olib keladi.

«Vatanimiz istiqlolini yanada mustahkamlash, uni himoya qilish, yurtimiz shon-shahratini yuksaltirish, adolat, insof va diyonat hukmron bo'lgan erkin jamiyat, mehnatkash xalqimizga munosib farovon hayot qurish bizning insoniy va fuqarolik burchimizdir» - deb ta'kidlagan edi Prezidentimiz.

O'z Vatanining munosib farzandiman deb bilgan har bir inson, ayniqsa yoshlar farovon kelajak hayotini namunali turmushini yaratish uchun burchlidir. Yoshlar shuni yaxshi bilmog'i lozimki, ularga hych kim tayyor holda bunday hayotni mukammal turmushni qurib bermaydi. Ularning o'zi bu yo'lda tinmay faoliyat, mehnat qilmog'i va jonbozlik ko'rsatmog'i lozim¹.

¹ Ubaydullayeva R.A. Mustakil O'zbekiston: ayol, oila va jamiyat. T.: Fan, 2006.

Kishilar turmush tarzi jamiyat hayotining shunday jihatiki, u hanch qachon kun tartibidan tushib qolmaydigan masaladir. Turmush tarzi deganda, kishilarning mehnat sohasidagi ijtimoiy hayotining barcha jabhalaridagi oila va kundalik hayot faoliyatlarining majmuasi tushuniladi.

Jamiyat hayotning bu sohasi sosiologiya fanida muhim o'rin egallaydi. Turmush tarzi sosiologiyasi maxsus nazariya sifatida jamiyat hayotining muayyan bosqichda qo'yidagi jihatlarni o'rganadi:

1) Kishilarning mehnat sharoiti, uning ijodiy harakteri, qo'l mehnatiga nisbatan texnikalashgan, avtomatlashgan mehnat jarayonining salmog'i.

2) Turmushda moddiy ne'matlarni iste'mol qilish darajasi, uning bo'sh vaqti, bunda aholi daromadining ortib borishi darajasi, iste'mol darajasining ortib borishi, yashash sharoiti, uy-joy bilan ta'minlanganligi; aholiga maishiy xizmat ko'rsatish turlari va ularning darajasi, sifati; uy mehnatini, xususan, ayollarning uydagi mehnatini yengillashtiruvchi zamonaviy texnik jihozlar bilan ta'minlanganligi darajasi.

3) Aholining savodxonlik darajasi, ta'lim darajasi va sifati, turmush madaniyati darajasi va uning zamonaviyligi.

4) Aholi salomatligi darajasi, unda aholiga ko'rsatiladigan tibbiy medisina xizmatning sifati; onalar va bolalar salomatligini saqlash darajasi; o'rtacha umr ko'rish ko'rsatgichi; jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish darajasi.

5) Kishilarning ma'naviy kamoloti darajasi va jamiyat ijtimoiy hayotidagi faoliyati darajasi va shu kabilar.

Sosiologiyada turmush tarzi qo'yidagi tiplarga ajratilib o'rganiladi:

1. Faol yaratuvchilikka asoslangan ijodiy, sog'lom turmush tarzi;
2. Iste'molchilikka asoslangan faol turmush tarzi;
3. O'rtamiyona turmush tarzi;
4. Noqonuniylikka asoslangan tekinxo'rlarcha turmush tarzi.

Faol yaratuvchilikka asoslangan turmush tarzi-jamiyat hayotning barcha sohalarida ijtimoiy faollik, oliy darajadagi fuqarolik iffati, ahloqiy, ma'naviy va jismoniy sog'lom, mehnatda o'zaro munosabatda, muloqotda yuksak

madaniyatlik, salbiy hodisalarga murosasizlik bilan qarshi kurashish, tabiatga nisbatan oqilona munosabatda bo'lish, atrofdagilarga nisbatan mehr-muhabbatda bo'lish kabi sifatlarni o'zida mujassamlashtirgan bo'ladi.

Iste'molchilikka asoslangan faol turmush tarzining asosiy ko'rsatkichlariga ishlab chiqarish va noishlab chiqarishdagi salbiy oqibatlar kiradi. Ishlab chiqarish va iste'moldagi yo'l qo'yilgan isrofgarchiliklar, atrof-muhitning ifloslanishi, yemirilishi, ekologik vaziyatning keskinlashuviga olib keladi.

Moddiy va ma'naviy boyliklarning isrof qilinishi jamiyatning qashshoqlanishiga olib keladi. Iqtisodning oddiy normalarini saqlamaslik, tejab-tergamaslik, moddiy, ma'naviy, jismoniy, moliyaviy zahiralarni ko'r-ko'rona, o'ylamasdan sarf qilish, isrof qilish, sifatsiz, aholi ehtiyojiga mos kelmagan mahsulotlarni yoppasiga ishlab chiqarish kabi faoliyat turlari iste'molchilikka asoslangan turmush tarzining asosiy salbiy xususiyatlarini tashkil qiladi.

O'rtamiyona turmush tarzi esa faol yaratuvchilikka asoslangan sog'lom turmush tarzi bilan iste'molchilikka asoslangan ijtimoiy faoliyat o'rtasidagi barcha usullari va ko'rinishlardagi ko'rsatkichlarni ifodalaydi. Uning harakterli xususiyatlariga iste'molning oqilona tarzidagi me'yori o'rtacha faollik, turmush madaniyatining o'rtacha sifat darajasi kiradi.

Turmush tarzining bu ko'rinishi jamiyat a'zolarining ko'pchiligiga xosdir.

Noqonuniy tarzidagi tekinxo'rlikka asoslangan turmush tarzi esa ijobiy ijtimoiy hayot tarziga zid hisoblanadi.

Bunday turmush tarzi o'zgaralar hisobiga kun ko'ruvchi, nosog'lom hayot kechiruvchi va mehnatsiz daromad oluvchilarga xosdir. Afsuski, turmush tarzining bu ko'rinishi jamiyatimiz hayotida hanuzgacha saqlanib qolmoqda. Ayniqsa, bozor munosabatlariga o'tish munosabati bilan uning salmog'i yanada oshmoqda¹.

Turmush tarzi kishilarning ma'naviy dunyosi bilan ham uzviy bog'liqdir. Unda kishilarning ong va fikrlash tarzi ham muhim o'rin tutadi. Turli ijtimoiy guruh a'zolarining ongi va fikrlash tarzi, ularning turmush tarzining in'ikosidir.

¹. Maxmudov R. "Huquq va madaniyat". T., "O'zbekiston" 1994

Chunki kishilarning turmush tarziga mavjud ijtimoiy shart-sharoitlar sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Kundalik hayot faoliyatida ularning ahloqiy estetik qarashlari, hulqi muomalasi, hayotiy turmush tasavvurlari ularning ichki dunyosiga, e'tiqodiga singib ketadi va turmush tarziga, fikrlash tarziga aylanadi. Turmush tarzining eng muhim ijtimoiy tomoni jamiyat a'zolarining ijtimoiy mehnat, o'zaro munosabatlar, oila, kundalik turmushdagi faolligi kishilarning jismoniy va ma'naviy imkoniyatlarni atrofdagi tabiiy va ijtimoiy muhit bilan qay tarzda namoyon bo'lishidadir.

Ijtimoiy sinflar, tabaqalar, guruhlar, millat va xalqlarning, yoshlar va keksalarning, shahar va qishloq aholisining o'ziga xos turmush tarzi kabilari o'zaro farqlanadi. Oila va ayrim kishilarning turmush tarzida milliy qadriyatlarning o'rni katta. Unda doimo milliy ruh, g'oya aks etib turadi. Har bir millat turmush tarzida milliy an'analar, urf-odatlar muhim o'rin egallab, milliy mafkurada uning o'ziga xosligini ifodalaydi.

«Turmush tarzi» tushunchasi «turmush sifati», «turmush darajasi», «hayot tarzi» kabi tushunchalar bilan uzviy bog'liq. Bozor munosabatlariga o'tish davri aholi turmush darajasini sifatini o'rganish, tahlil qilish orqali, u bilan bog'liq bo'lgan ko'plab hayotiy muammolar oydinlashadi. Chunki kishilarning turmush jamiyati taraqqiyotining iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va ma'naviy-madaniy jihatlarini o'zida aks ettiradi, milliy mafkurada o'z ifodasini topadi.

Turmush sifati tushunchasi turmush tarzining sifatijihatlarini o'zida ifodalaydi. Bu tushuncha XX asrning 60-70 yillaridan boshlab g'arb sosiologiyasida katta ahamiyat kasb eta boshladi. Maxsus «turmush sifatini yaxshilash» dasturi ishlab chiqildi. Milliy daromadning aholi jon boshiga tahsirlash orqali turmush sifatining miqdoriy ko'rsatkichlari aniqlangan.

Turmush sifati-turmush tarzining muhim tarkibi jihati bo'lib, insonning ijtimoiy rivojlanishi, erkinligi, moddiy farovonlik darajasining ifodasidir. Turmush sifati, bu eng avvalo moddiy va ma'naviy jihatdan baquvvat, sog'lom muhitli oila turmush tarzi, hayot farovonligi, maroqli ijtimoiy mehnat, shaxs erkinligi va o'zligini namoyon qilish darajasiga bog'liq bo'lib, kishilar, oila va millat ijtimoiy

guruhlarning birgalikdagi sa'y-harakatlari bilan yaratiladi va mukammallashtirib boriladi.

Amerikalik ruhshunos olim A.Maslou turmush sifatining asosiy komponentini qo'yidagicha ko'rsatadi: ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ekologik va madaniy harbiy sohadir. Uningcha, hayotning shu sohaları o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik turmush sifati qay darajada ekanligini belgilab beradi. Ayniqsa, hozirgi davr yuksak darajadagi turmush sifatini yaratish uchun demografik va ekologik muammolarni hal etib borish muhim ahamitga ega. Shuningdek, turmush sifatini yuksalishida axloqiy va ijtimoiy masalalar ham markaziy o'rin egallaydi.

Turmush tarzining miqdoriy va sifat jihatları o'zaro dialektik bog'liqlikdadir. Ularni bir-biriga qarama-qarshi qo'yib bo'lmaydi. Miqdor o'zgarishlar sifati o'zgarishlariga olib borganidek, ishlab chiqarishni yuksak darajada rivojlanishiga erishmasdan turib turmush sifatini yuksaltirib bo'lmaydi.

«Turmush darajasi» tushunchasi ham turmush tarzining muhim jihatini ifodalab, kishilar turmushining iqtisodiy, madaniy, ta'limiy kabi jihatlarida tutgan mavqeyini anglatadi. Kishilar turmush darajasi aholining moddiy va ma'naviy jihatdan ehtiyojining qanchalik qondirib borilishi bilan bog'liq.

Turmush tarzining xususan aholi turmush darajasining asosiy ko'rsatkichlari qo'yidagilarni o'z ichiga oladi: aholining ijtimoiy tarkibi, ijtimoiy mehnat bilan ta'minlanganlik darajasi bilan, moddiy ne'matlarni aholi o'rtasidagi taqsimoti va iste'moldagi aholining ulushi: sog'liqni saqlash darajasi: tibbiy xizmat ko'rsatish sifati: maishiy xizmat ko'rsatish turlari va sifati: ta'lim darajasi, maktabgacha tarbiya muassasalarining faoliyati darajasi va sifati: dam olishni tashkil qilish va sport bilan shug'ullanishning qay darajada ommaviy tus olganligi: axloqiy-estetik ko'rsatkichlar ekologik vaziyat: oila byudjeti va real daromad kabilar kiradi.

Ish xaqining xarid quvvati darajasi ham turmush darajasini baholaydigan muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Real daromadlar aholi turmush darajasining xalq moddiy va ma'naviy ehtiyojlari qondirilishining umumlashtiruvchi ko'rsatkichi bo'lsada, ammo uning turmush darajasi to'la ko'rsatishga bu hali yetarli emas. U yana sotib olinadigan va pullik, imtiyozli,

hamda tekin xizmatlardan foydalanish jarayoni ham o'z ichiga olgan moddiy ne'matlar yig'indisini ifodalovchi haqiqiy daromadlar hisobga olingandagina ma'lum bo'ladi. U ma'lum vaqt ichida aholi to'lagan soliqlarni, turli pul yig'imlarini, majburiy to'lovlarni, jamoat tashkilotlariga a'zolik badallarini chiqarib tashlagandan keyin qoladigan pirovard daromad hisoblanadi.

Bozor munosabatlariga o'tish davridagi mavjud iqtisodiy qiyinliklar aholi turmush darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. Shu jihatdan, aholining turmush sifati, bozor munosabatlarining qanchalik darajada harakterda rivojlanishiga bog'liq bo'lib qolmoqda. Hozirda, oila harajatlarning asosiy qismini oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qilish tashkil qilmoqda. Mavjud demografik vaziyat ham bu muammoni yanada keskinlashtirmoqda. Respublika miqyosida Farg'ona vodiysi, xususan, Andijon viloyati aholisi zichligi jihatidan boshqa viloyatlardan keskin farq qiladi. Bu esa, aholini ish bilan ta'minlash, oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berish, uy-joy bilan ta'minlash, narx-navoni esa borgan sari oshib borayotganligini va shu kabi ko'plab ijtimoiy muammolarni ko'ndalang qilib qo'yganki, ularning barchasi aholi turmush darajasini va sifatini oshirishda qiyinchiliklar tug'dirish tabiiy.

Turmush tarzining eng muhim sohasi kishilarning jamiyatda moddiy va ma'naviy darajasini bildiruvchi barometr deyin mumkin. Shuning uchun turmush bu kishilarning ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan, moddiy noz-ne'matlarni iste'mol qilish moddiy-ma'naviy kuch-quvvatini yana tiklash jarayoni bo'lib, faoliyatlar sohasi, moddiy-ma'naviy ehtiyojlarini qondirish usullari va formalari yig'indisi, turli tuman taomillar, marosimlar, urf-odatlar, an'analarni nishonlash va boshqa kishilarning ijtimoiy hayot normalaridir.

Shunday qilib turmush tarzi sosiologiyasi jamiyat hayotining muhim sohasini tadqiq qilish orqali mamlakat ijtimoiy taraqqiyotini boshqarishda katta ilmiy ahamiyatga egadir.

Inson ijtimoiy mavjudot, shu sababli shaxs sifatida u faqat jamiyatda rivojlanadi.

Odam konkret ijtimoi muhitda yashaydi. U oila a'zosi, sosial qatlamning vakilidir. Uning butun hayoti kollektivda, boshqa kishilar bilan munosabatda, aloqada o'tadi. Hozirga qadar «Har kimning qobiliyatiga yarasha, har kimning mehnatiga yarasha», degan prinsip ahamiyatini yo'qotmagan, bu prinsip bevosita shaxsning qobiliyatiga, uning iste'dodiga qaratilgan.

Shaxs belgilarining 1-gruppasi –shaxsning, umuman jamiyatning, iqtisodiy va siyosiy sohalari bilan bog'liq holda, hayotda amalga oshgan vazifalari, maqsadlari; barcha ijtimoiy munosabatlarni, davlat siyosati bilan bog'liq holda amalga oshirish, u bilan ongli munosabatda bo'lishidan iboratdir.

Shu bilan birgalikda shaxs ijtimoiy manfaatlarni birinchi o'ringa qo'yuvchi g'oyaviy shaxs sifatida chiqadi. Hozirgi davrimizda shaxs o'z shaxsiy manfaatlari bilan birgalikda ijtimoiy manfaatlarni qo'shgan holda harakat qiladi.

Shaxs belgilarining 2-gruppasi – shaxsning o'z faoliyatiga murojaati bilan, o'zining jamiyatdagi o'rnini tushunishi bilan bog'liq. Mehnat shaxs uchun vositagina bo'lib qolmay, balki jamiyatda ijtimoiy farovonlikni ta'minlovchisi, ishtirokchisi sifatida xalqqa, uning ishiga xizmat qilish sifatida ham namoyon bo'ladi.

Shaxs belgilarining 3-gruppasiga-odamning boshqa kishilarga munosabatini harakterlaydi. Kishilarning maqsadlari va xulq-atvor normalarining bir-biriga ta'sirini analiz qilayotganda shaxsning ana shu tomoni hammadan ko'ra ko'proq namoyon bo'ladi.

Jamiyat rivojlanishida jamiyat tomonidan rasmiy e'lon qilingan maqsad va normalar bilan jamiyat a'zolarining real xulq-atvori, ular haqiqatda amal qilayotgan normalar o'rtasida hal qilish murakkab bo'lgan, hal qilib bo'lmaydigan nizolar mavjud. Bu nizolar asosan sosial tabaqalar: millatlar, elatlar o'rtasidagi doimiy bo'lib turadigan holdir, bu esa obyektiv qonuniyatdir.

«Axloq-odobga hadis namunalari» kitobida bu borada qo'yidagi hikmatlarni o'qiymiz: «Qo'shningizga yaxshilik qiling – tinch bo'lasiz... O'zingiz sevgan narsani odamlarga ham ravo ko'ring – salomat yurasiz... Inson hatoni ko'proq o'z tili bilan sodir qiladi... Tashqi ko'rinishingiz yoki molu-dunyongizga emas, balki

dillaringizga va ishlaringizga baho beriladi». Ana shunga o'xshash hikmatlarda, kishilarning yurish-turishi, atrofdagilar bilan munosabatingiz axloqiy asoslari, inson go'zalligining umumiy mezonlari to'g'risidagi olam-olam ma'noni o'qib va o'zlashtirib olish mumkin.

Kim qaysi lavozim va vazifada ishlashidan qat'iy nazar, o'zining serzavq, sermazmun mehnati, yaxshi kayfiyati, boshqalarga yordami va sahiyligi, kamtarligi, madaniyligi, qadr-qimmat va xulq odobi bilan, shaxsning qadr-qimmat, ma'naviy boyligining mezoni uning boshqalarga foydasi uchun qilgan va qilayotgan mehnati, jamiyatimiz qoidalariga rioya etish, ijtimoiy hayotda aktiv qatnashishi bilan belgilanadi.

Shaxsning erkin rivojlanishi mumkin bo'lmagan jamiyatda, uning mukammal yetuk shaxsga aylanishi uchun zarur shart-sharoit bo'lmaydi (Ayniqsa, ma'naviy yetuk bo'lishi uchun).

Masalan, ertadan kechgacha mehnati evaziga arzimagan ish haqi oladigan, istagan narsasini sotib olishga qurbi yetmaydigan, dam olish va xordiq chiqarishga vaqti va mablag'i yetmaydigan, hamma narsasi ko'p, hayoti to'kis, istaganini muhayyo qilish imkoniyatiga ega bo'lgan kishilarning ma'naviyatida ham farq bo'lmasdan iloji yo'q¹.

Bundan tashqari shaxsni kamol topishi-insonga xos axloqiy fazilatlar har bir kishi yashayotgan muhitdagi kishilar bilan, turmushda, oilada, qo'ni-qo'shni-chilik va yoru-birodarlikda, jamoat joylaridagi munosabatlarda, boshqalar bilan bo'ladigan aloqasi yurish-turishi, muomalasi, kiyinish, did-farosati va boshqa fazilatlarida namoyon bo'ladi.

Shaxsni har tomonlama kamol topish yetuk bo'lishi uchun, «axloq», «odob» normalari ham muhim o'rin tutadi. Hamjihat ish yuritish va odamlarga foyda keltirish bilan go'zaldir.

Shaxsning go'zalligi va aqloqiy fazilatlar har bir kishining talantli hamda ijodida namoyon bo'ladi. Chunki, odamlar bilan bo'ladigan munosabatlarda ham san'at va ijod zarur.

¹ Қаранг. Х.Шайхова, К.Назаров. “Умуминсоний қадриятлар ва маънавий камолот”, 1992. 42-43 бетлар.

Har bir shaxs o'z atrofidagi kishilarning doimiy ma'naviy madadini sezib tursagina, uyushma, shaxs o'rtasidagi bunday aloqalar inson qobiliyati va xususiyatlarining rivojlanishiga imkon beradi. Bunday aloqalarni buzish esa, aksincha shaxsning rivojlanishini sekinlashtirish, harakteri va ruhiy olamida har xil noinsoniy xususiyatlarini jonlantirish mumkin. Nisbatan bir xil ishni bajaradigan tashkilot va jamoalarda xizmat qiluvchi kishilar orasidagi muloqot va munosabat, ayniqsa yoshlarning shaxsiy xususiyatlarini tarbiyalashning asosiy omillaridan biridir. Bunday muloqot biror kishini kamsitish yoki faqat katta yoshli bo'lgani uchungina unga bo'ysinish munosabatlari asosiga qurilsa, ko'zlangan natijani bermayd. Italiyalik ulug' mutafakkir Danto: «Odam-odamni tarbiyalaydi deydilar, gohida odam-odamni naqadar tez buzishini ko'rib hayron qolasan»², - deya bejiz aytmagan.

² Қаранг. Х.Шайхова, К.Назаров. “Умуминсоний қадриятлар ва маънавий камолот”, 1992. 48-49 бетлар.

I.2. OILA XO'JALIGINI PAYDO BO'LISHI VA TARAQQIY ETISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.

Mamlakatimizda mavjud oilalarning aksariyati to'liq oilalardir. To'liq oila deganda ota-ona va farzandlardan iborat oila tushuniladi. Bu tipik oilaga xos xususiyatdir. O'zbekistonning o'ziga xos xususiyati shundaki, hozirda o'zbek oilalarida katta patriarxal oila xo'jaligi ham saqlanib qolyapti. Bunda 2-3 avlod xo'jaligi umumiy bo'lib, ularning iqtisodiy birligining asosi hisoblangan oila mulki faqat oila boshlig'i qo'lida bo'ladi va hamma unga to'la bo'ysunadi. Bunday oilaning bola tarbiyasida ijobiy jihatlari ko'p.

Bu oila turi asosan oilaviy munosabatlarni keng miqyosda amalga oshirish imkonini berdi. O'zbek oilasining tashqaridan sezilmaydigan, o'ziga xos ichki

qonun-qoidalari, axloqiy mezonlari aynan mana shunday oilalarda amalga oshiriladi. Bunday oilalarning o'ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, bunday oilalarda ertalab barvaqt turish shart. Rizq-ro'z tongda ulashiladi. Ikkinchidan, yuz-qo'lini yuvmasdan hol-ahvol so'ralmaydi, yuz-qo'lini yuvgandan so'ng kichiklar kattalarga salom beradilar. Ayollar nonushta hoziraydilar, qiz-kelinlar hovli supurib ishga boradilar. Bunday oilalarda oila boshlig'i yoshi ulug' odam hisoblanadi. U oiladagi barcha ishlarni boshqaradi. Bunday oilalarda katta yoshlilar bolalarga, balog'atga yetgan farzandlari, kelinlarga ochiq-sochiq holda ko'rinmaydilar, bachkana qiliq qilmaydilar, pardasiz so'zlarni aytmaydilar, hamma bir-biriga hurmat bilan munosabatda bo'ladi.

Bunday oilalarda nafaqat oilaviy munosabat, balki qon-qarindoshlik munosabatlari madaniyati ham yuksak darajada shakllangan bo'ladi. Bu munosabatlarda milliylikning asl o'zagi namoyon bo'ladi. Bu munosabatlarning afzalligi yana shundaki, bunda qarindosh-urug'lar bilan oqibatli bo'lib yashash, farzandlarni milliy udum, qadriyatlar ruhida tarbiyalash uchun imkoniyat tug'iladi hamda ular qarindoshlar orasida ham moddiy ham ma'naviy tayanch, suyanch bo'lib yashashga odatlanadilar. Bunday oilalarda tarbiyalangan farzandlar ham barcha bilan munosabatda tezda kirishib keta oladigan, munosabat madaniyatiga rioya etadigan inson bo'lib shakllanadilar, chunki bu bolalarni bitta oila emas, bir necha oila tarbiyalaydi. Bu esa oila mustahkamligini asoslash bilan birga uning mohiyatini ham belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritganidan keyin o'tgan davr ichida ham siyosiy, ham ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda katta muvaffaqiyatlarga erishiladi. Biroq, bu ishlar o'z-o'zidan amalga oshirilayotgani yo'q. Buning uchun eng to'g'ri yo'lni tanlay bilish, barcha sohadagi, shu jumladan, demografik jarayonlardagi o'ziga xos xususiyatlarni har tmomnlama asoslangan holda o'rganish muhim ahamiyatga egadir.

Zero, ilmiy asoslangan demografik siyosatning amalga oshirilishi aholi salomatligini tubdan yaxshilash, oilani ijtimoiy himoya qilish, respublika ichida mahalliy aholining migrasion harakatchanligini oshirish, mehnat resurslaridan

unumli foydalanish, qishloqda ish bilan bandlikni ijtimoiy-demografik jihatlarini shakllantirishni taqazo etadi. Qolaversa, aholining ko'payib borishida oila asosiy o'rinni egallaydi. Demografik siyosatning asosiy maqsadi oilalarni mustahkamlash, ularning farovonligini oshirishdan ibrat bo'lmoqda. Qolaversa, bunday siyosat O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti xususiyatini, aholi sifat tarkibini yaxshilashni, sog'lom turmush tarzini vujudga keltirish va rag'botlantirishni nazarda tutadi.

1. Oilaviy munosabat madaniyatining takomillashuvi har bir jamiyatda mavjud oila tipi, iqtisodiy taraqqiyoti va o'ziga xosligi, xo'jalik tizimi, turmush tarzi, tabiiy o'sishi, turli demografik belgilarga bevosita bog'liq bo'ladi.

2. O'zbek oilalarining o'ziga xos xususiyati Sharqona odob-axloq qoidalariga amal qilishi, an'anaviy oila va qarindoshlik munosabatlari madaniyatidan iboratdir.

3. O'zbek oilalarida serfarzandlik ulug'lanadi. Erta nikohdan o'tish odat bo'lib, nikohsiz yashash qoralanadi. Bu ham respublikamizda aholining tabiiy o'sishi yuqoriligiga sabab bo'lmoqda. Shuning uchun ham o'tish davrida respublikada aholini ish bilan ta'minlash o'tkir muammolardan biriga aylangan. Bu muammolarning hal etilishi o'tkir muammolardan biriga aylangan. Bu muammolarning hal etilishi oilaning moddiy ahvolini yaxshilash borasida uning ijtimoiy shakllanish xususiyatlarini aniq ishlab chiqishlikni taqazo etadi.

Oila uning kelib chiqishi, oilaning tuzilishidagi shart-sharoitlar, nikoh shakllari haqidagi ta'limotning paydo bo'lishiga, ayniqsa, bu sohada Mak-Lenonning «Qadimgi tarix ocherklari», 1886 yil, «Ibtidoiy nikoh» asarlarini, Morganning «Inson oilasining qarindoshlik va qudachilik sistemalari», 1871 yil, «Qadimgi jamiyat» 1877 yilda yozilgan asarlarini tahlil qilib beradi³.

F.Engels oila va nikoh to'g'risida fikr yuritir ekan, Mak-Lenon tomonidan o'rtaga tashlagan «Uch xil nikoh formasi: ko'p xotinlik, ko'p erlilik, bir nikohlilik» masalasini sharxlaydi. Shunday nikoh hukm surgan davr ham bo'lganki, qabila ona tomonidan qon-qarindosh bo'lgan bir qancha guruhlariga, urug'larga bo'linib, ular

³ Ўша жойда.

ichida nikoh butun man etilgan: shunga, bu urug'larga mansub bo'lgan erkaklar garchi qabila ichidan xotin olishlari mumkin bo'lsada, biroq xotinni o'z urug'idan emas boshqa urug'dan olishlari lozim bo'lgan edi.

«Oila, -deydi Morgan, -faol asosdir. U hych vaqt o'zgarmasdan qolmaydi, balki jamiyat qo'yi bosqichdan yuqori bosqich tomon rivojlana borgan sari qo'yi shakldan yuqori shaklga o'ta boradi. Aksincha qarindoshlik sistemalari passivdir; ular uzoq-uzoq vaqtlardan keyingi shu davr ichida oilada yuz bergan jarayonni qayd qiladi va oilada keskin ravishda o'zgargandan so'ng ular ham keskin ravishda o'zgaradi,-deb ta'kidlaydi.

Oilaning formalaridan yana biri qon-qarindosh oila formasi bo'lib, u oilaning 1-bosqichi bo'lib hisoblanadi.

Oilaning bu shakli faqat ajdodlar, ota-onalar bilan bolalar o'rtasida er-xotinlik huquqi va majburiyatlari bo'lmasligini Morgan izohlab bergan. Hollavacha, tog'avachcha, amnavachcha, amakivachchalarning o'zaro nikohiga yo'l qo'yilgan.

Juft oila formasi, bu formada erkaklar bilan zarur uzoq vaqtlar juft-juft bo'lib yashaganlar. Erkakning ko'p xotinlari orasidagi «sevikli» bosh xotin hisoblangan; bu erkak boshqa erlar orasida, mazkur xotinning bosh eri bo'lgan; juft oila uyushgan nikohlarni siqib chiqargan, bu bosqichda erkak bir xotin bilan yashagan, biroq ko'p xotinlilik erkakning o'z huquqi bo'lib qolgan, bu narsa ko'proq iqtisodiy sabablarga ko'ra ayol kishining qaramligidan kelib chiqqan. Bu to'g'rida Morgan: «Urug'larning qon-qardosh bo'lmagan a'zolari o'rtasida nikohlar jismoniy va axloqiy jihatdan mustahkamroq naslni vujudga keltiradi: taraqqiy qiluvchi ikki qabila qo'shiladi, yangi avlodlarning bosh suyagi bilan miyasi tabiiy suratda kattalashib, har ikkala qabilaning jami qobiliyatiga mos keladigan darajaga keladi».

Navbatdagi oila shakli-monogam oila shakli bo'lib, bu oila formasi hozirgi zamon barqaror oila tuzilishining dastlabki ko'rinishi bo'lib, u insoniy axloq bilan bog'langan, tug'ilgan bolani otasi aniqligi bilan ajralib turadi. Bu oila varvarlikning o'rta bosqichi orasidagi davrda juft oiladan kelib chiqqan, shu bois

bolaning otasi kim ekanligi aniq bo'lga. Bolalar o'z otalarining mol-mulkiga ega bo'luvchi vorislari sifatida o'rin topadilar, boshqacha qilib aytganda ular bu mulklarga merosxo'r, degan huquqqa ega bo'ladilar. Bu qadimdan qolgan merosxo'rlik, hozirgi zamonning barcha xalqlarida yashab kelmoqda, davlat tomonidan qonun bilan belgilab qo'yilgan.

Jamiyat taraqqiyotining so'ngi bosqichlarida oilaviy hayotning rivojlanishi-axloqiy tushunchalarning normallasuvi xotin-qizlarning to'la erkinligi yohud erkaklar bilan teng huquqligining hal etilishida oilaning zamonaviy shakli vujudga kelishi bilan bog'lanadi.

Demak, oilaning kelib chiqishi ijtimoiy zarurat bo'lib, u o'z taraqqiyotiga yuqorida ko'rsatib o'tilgan shakllarni bosib o'tib, hozirgi zamon oilasi-qonun, axloq-odob asoslariga ko'rilgan oila maydonga keladi. Oilaning bu yuksak hozirgi zamon shakli jamiyatning rivojlanishiga hamohang holda rivojlanib boraveradi, jamiyatning o'zgarishlariga qarab, u ham tabiiy ravishda o'zgaraveradi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida hozirgi davrda oilaning faoliyatini, asosiy vazifalari, burchlarini qonunlashtirilgan yo'nalishlari belgilab berilgan⁴.

Ular asosan:

1. Oila jamiyatning asosiy bug'inidir, ham jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega. Nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqligiga asoslanadi.

2. Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar. Davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalarning vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqish, tarbiyalash, o'qitishni ta'minlaydi.

3. Farzandlar ota-onalarning nasl-nasabidan va fuqarolik holatidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdirlar. Onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

4. Voyaga yetmagan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar.

⁴ Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Т. 1992 йил. 20-21 бетлар.

Shunday qilib, nikoh va oilaviy munosabatlar O'zbekiston Respublikasining nikoh va oila kodeksi normalari bilan tartibga solinadi. Bu qonunlarda oila va nikoh munosabatlarining asosiy prinsiplari belgilab berilgan.

Bu prinsiplar qo'yidagilardan iborat: yakka nikohlik prinsipi. Bu prinsipga ko'ra, har bir grajdan faqat bitta nikohda bo'lishi mumkin.

Nikohning ixtiyoriylik va o'zaro prinsipi. Bu prinsipga muvofiq, har bir erkak va ayol o'ziga yoqqan shaxs bilan o'zixtiori bilan nikohga kirishi mumkin. Hyech kimning nikohga kirishi uchun biror shaxs majburlashi va zo'rlashi bilan nikohdan o'tishiga yo'l qo'yilmaydi.

Ajralishning erkinligi. Oila u yoki bu sabab bilan buziladigan bo'lsa bu holda er bilan xotin bir-birlari bilan ajralish huquqiga egadirlar. Ammo ajralish ishi davlat tomonidan nazorat qilinadi.

Oilada va oilaviy munosabatlarda er va xotinning teng huquqligi. Bu prinsipning mazmuni shuki, shaxsiy va mulkiy huquqda er va xotin tengdir.

Oilaviy munosabatlarni hal qilishda er va xotin baravar huquqga egadir. Oilaning davlat tomonidan himoyaga olinishi, onalikning rag'batlantirilishi ham oila va nikoh huquqining asosiy prinsiplaridan biridir⁵.

Oilada er-xotin o'rtasidagi mehr-muhabbat, sadoqat, muhabbat, vafodorlik, bir-birini hurmat qilish, farzandlar tarbiyasi, ota-onaning farzandlari oldidagi burchlari va aksincha farzandlarning ota-onalarni oldida burchlari haqida bizga qadar o'tgan buyuk allomalarimizning o'qtirishlari, nasihatlari, qolaversa chuqur hayotiy ma'noga ega bo'lgan, hozirga qadar o'z ahamiyatini yo'qotmagan fikrlarini bilish, o'rganish biz uchun muhimdir.

Ulardan ayrimlarining fikrlarini bunga misol qilib keltirish mumkin: Olimot ulBanoit «Muoshariat odobi» kitobida (Toshkent «Mehnat», 1991 yilda chiqqan) muallif oilada er bilan uning rafiqasi orasida bo'ladigan odob haqida qo'yidagilarni yozadi⁶:

⁵ Каранг. А.Тўхтасинов, Н.Рахимов. “Никох, оила, жамият”, Т. 1985. 6-7 бетлар.

⁶ Олимот ул-Баноит. “Муошарият одоби”, Т. 1992. 8-бет.

«Erlar bilan ko'rkam turmush qurmoq uchun xotinlar ushbu ikki turli narsani e'tiborga olmoqlari lozim:

Birinchi, erlarning tabiyat mijozini va xulqini yaxshi bilmoq va buning uchun ularni ko'p marotaba sinamoq kerakdir. So'ngra ana shunga qarab ish qilmoq lozim bo'ladi. Ya'ni er bo'lgan kishi qanday narsalardan xursand bo'ladi-yu, qanday ishlardan ko'ngli qoladi. Shuning uchun har vaqt xotinlar erlarining tabiyatlarini ochiq bilib, ularning yoqtirgan narsalarini qilishlari va yoqtirmagan narsalarini qilmasliklari lozimdir.

Ikkinchi, ular erlariga itoatli xotinlar haqida bo'lgan yaxshi xabarlarni hamda itoatsiz xotinlar haqida bo'lgan yomon habarlarni ham bilmoqlari lozim bo'ladi. Shariatimiz esa itoatli xotinlarga «ezgu xotinlar» ismini berib, amallari barobariga ham ko'p savollar va'da etganlar. Itoatsiz xotinlarni «usal, uyatsiz xotinlar» deb atab, dunyo ko'rgan mashaqqatlaridan ortiq, oxiratda ham bir qadar azoblar berajagidan xabar berganlar»⁷.

Ayollarning hayotda qanday bo'lishlari kerakligi haqida buyuk allomamiz Ibn-Sinoning qimmatli fikrlari, u kishi tomonidan yozilgan «Tadbiri manzil» asarida ularning yaxshi xulqi bo'lishi haqida qo'yidagi fikrlarni aytgan:

1. Xotin kishi bilimli bo'lsin
2. U dinga ishonishi kerak
3. Uyatli, sharm-hayoli
4. Tabiatan jasur
5. O'z erini qattiq sevishi
6. Tug'ish va bola tarbyasi haqida o'ylashi
7. Ezma bo'lmasligi
8. O'z eriga bo'ysinishi
9. To'g'ri, kamtar va farosatli bo'lishi
10. U harch vaqt o'z sha'niga dog' tushirmasligi
11. Eri bilan ehtiyotkor bo'lib, uning hurmatini joyiga qo'yib muomila qilishi shart

⁷ Ўша жойда. 8-9 бетлар.

12.U o'z vazifasini va burchini yaxshi bilishi

13.Xotin oila ho'jaligidagi narsalardan to'g'ri, tejab foydalana bilishi

14.U o'z tabiati va yaxshi tomonlari bilan eridagi kamchiliklarni yo'qotishi kerak⁸.

Ibn Sino ayollarimizga ana shunday murakkab va hayotiy vazifalarni yuklaydi. Uni bu vazifalar qanchalik og'ir bo'lmasin u oilani mustahkamlashda asosiy vosita xizmatini o'taydi.

Oilaning asosiy muhim vazifalardan biri farzand tarbiyasi, uni sog'lom, baquvvat, har tomonlama kamolga yetgan, ma'naviy boy, ahloqiy pok va jismoniy sog'lom kishilarni tarbiyalash ilk bor oilada amalga oshiriladi. Shu bois hozirgi kunda oila va undagi o'zaro ahloqiy munosabatlar, xususan, bola tarbiyasi masalalari aynan shu kunning dolzarb va ijobiy hal etishi lozim bo'lgan muammolar qatoridan o'rin olgan. Zero oilada turmushning yaxshi tashkil etilgan muayyan ichki tartibi, ya'ni mehnat, dam olish, ovqatlanish, o'quv mashg'ulotlari, o'yinlar, sayr qilish, madaniy ko'ngil ochish kabilar ko'ngilgidek ichki intizomni vujudga keltiradi. Shuning uchun ham doimo, har qanday sharoitda ham oilada o'zaro normal munosabatlarni saqlashga, unda sog'lom vaziyat o'rnatishga harakat qilish lozim. Chunki, oilada shunday sog'lom vaziyat bo'lmas ekan, bola tarbiyasida ham, er-xotin o'rtasidagi munosabatda ham, qo'yinki, oilaning boshqa a'zolari o'rtasida ham totuvlik bo'lmaydi, buning oqibatida har xil ko'ngilsiz voqyealarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Bobokalonlarimizdan Yusuf xos Hojib – «Oiladagi eng ulug' fazilat ezgulik va go'zal xulqdir. Ikkinchisi – rostlik, uchinchisi – hayot hisoblanadi. Mana shu uch fazilat birlashsa, kishi baxtiyor bo'ladi, qut-iqbol uning huzuriga bosh urib keladi»,⁹ – deb aytgan edilar. Xalq muammolaridan: «Farzand aziz-odobi undan aziz» o'z o'rnida aytilgan.

Hozirgi davr barcha sohadagi kabi oila ota-ona va bolalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar masalasini, farzandlar tarbiyasi masalasini to'g'ri va ijobiy hal etishni ko'ndalang qilib qo'yimoqda. Bu muammoni kishini ma'naviy jihatdan

⁸ С.Рахимов. "Абу Али Ибн Сино – таълим ва тарбиялаш ҳақида". Т. 1967, 93-бет.

⁹ Юсуф Хос Хожиб. "Қутадғу билиг", Т. 1990, 38-бет.

yuksaltirish asosidagina hal qilish mumkin. Zero oila jamiyatning ajralmas zarur qismidir.

Shunday qilib, oila ikkita katta o'lgan ijtimoiy vazifani: farzandlarni dunyoga keltirish hamda ularga to'g'ri tarbiya berishni yo'lga qo'yadi. So'nggi vaqtda oila va bolalar tarbiyasida anchagina muammolar yig'ilib qolganligi kuzatiladi. Buning oldini olish maqsadida, chora-tadbirlar, ya'ni 1989 yil 28 fevral va 1 mart kunlari Toshkent shahrida «Yoshlar va o'smirlar o'rtasida, ularning tarbiyasida maktab, oila, mehnat jamoalari va jamoatchilik hamkorlik ishini takomillashtirish» mavzusida o'tkazilgan jumhuriyat miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyani aytish mumkin. Bir qator metodik qo'llanmalar: «Oilada bola tarbiyasi», «Oilada ruhiy yordam», «Oilaviy munosabatning tibbiy jihatlari», «Oilani rivojlantirishning regional xususiyatlari» kabi qo'llanmalar tavsiya etildi.

Ayniqsa, jahonda oila va bolalar tinchligi, osoyishtaligini yanada mustahkamlash maqsadida 1989 yil 17 mayda Toshkentda Osiyo-Tinch okean regionini mamlakatlari xotin-qizlar jamoatchiligining «Xotin-qizlar tinchlik uchun» mavzusidagi anjumani bo'lib o'tishi katta ahamiyatga ega.

Keyingi paytda televideniye va radio eshittirishlarida ham oila tarbiyasi mavzusiga katta ahamiyat berilmoqda, chunonchi: «otalar so'zi-aqlning ko'zi», «qari bilganni pari bilmas», «hayot va zamon», «odobnoma», «Qadriyatlar» kabi ko'rsatuvlar shular jumlasidandir.

Bola tarbiyasida eng avvalo oila hayotini to'g'ri yo'lga qo'yish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, rostgo'ylik, samimiylik, sadoqatli shirin suxan bo'lishi bola kamolotida beqiyos hayotiy muhim vositadir, bu borada «Hadis» namunalarida bunday deyilgan: «Gaplarning yomoni bu yolg'onchilikdir, yolg'onni hazil bilan ham, jiddiy ham gapirib bo'lmaydi. Ota o'z bolalariga biron narsani va'da qilib keyin bajarib qo'ysin. Rostgo'y odamga yaxshi baho, yomon odamga yomon beradilar. Chaqimchilik ham yomon illatdir, chunki u tufayli odamlar o'rtasi buziladi¹⁰. Ayrim ota-onalar, ayniqsa otalar farzandlari oldidagi

¹⁰ Қаранг. “Ахлоқ – одобга оид ҳадис намуналари”. Т. “Фан”, 1990, 46-бет.

burchini oilani faqat moddiy jihatdan ta'minlashgina tushinadilar. Otalik burchi faqat ono topib kelishdan iborat emas-ku.

Xalq bolalarning hatti-harakatiga, qiliqlariga baho berar ekan, doimo ularning ota-onalariga o'xshashlik tomonlarini qidirishgan. Xalqimiz orasida «onasini ko'ru-qizini ol» yoki «otasining o'g'lida» degan gaplarning yurishi fikrimizning asosidir.

O'zbek xalhiga xos boy urf-odatlarini ham hozirgi kunga kelib, bolalarimiz u yoqda tursin hatto ayrim ota-onalarning o'zlari ham bilishmaydi, bilishsa ham amal qilishmaydi. Shunday ekan ushbu oilalarda tarbiyalangan bolalardan bu haqda nimani ham talab qila olasiz.

Hayriyatki, endilikda ana shu yo'qotilgan ajoyib sharqona an'analarimiz tiklanmoqda. Zero bu yoshlarimizni o'z xalqiga, o'z Vataniga, o'z milliy an'analariga cheksiz hurmat ruhida tarbiyalashda beqiyos xazina bo'lib xizmat qilish mumkin.

Shuni ham ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasi bo'yicha nikohlar umumiy soni o'sishi bilan ajralishlar umumiy sonining ham o'sayotganligi tashvishlidir. Respublika bo'yicha umumiy ko'rsatgichga nisbatan Andijon viloyati bo'yicha umumiy ko'rsatgichga nisbatan oila qurish va ajralishlar miqdori o'tgan uch yil mobaynida sezilarli darajada kamaygan.

O'zbekistonda nikoh va ajralishlar soni

Yillar	Nikohlar soni, ming	Ajralishlar soni, ming	Har 1000 aholi hisobiga	
			nikohlar	ajralishlar
1980 yil	173,6	22,5	10,9	1,4
1985 yil	200,8	26,1	11,0	1,4
1990 yil	217,1	29,9	10,6	1,5
1992 yil	270,3	33,4	12,9	1,6
1993 yil	235,9	32,8	11,0	1,5

Andijon viloyati bo'yicha nikoh va ajralish soni

Yillar	Nikohlar soni, ming	Ajrashlar soni, ming	Har 1000 aholi hisobiga	
			nikohlar	ajrashlar
1993 yil viloyatda shaharlar	22468	1785 7,9%	11,2	0,8
	5967	1172 19,2%	11,9	2,3
1994 yil viloyatda shaharlar	14487	1344 9,2%	7,3	0,7
	4627	886 19,2%	9,2	1,8
1995 yil viloyatda shaharlar	16485	1163 7,5%	8,0	0,5
	4057	567 14,6%	7,2	1,2

Oilaviy ajralishning asosiy sabablari nimalar?

Ajrashlarning tarafdorlari ko'proq kim: erkaklarni yoki ayollarni. Qaysi birlari ko'proq aybdor, hozirda qanday omillar oilaviy qo'ydi-chiqdilarga sabab bo'lmoqda.

Olib borilgan sosiologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra oilaviy ajralishlar 70 foizdan ayollarning, faqat 30 foizida esa erkaklarning da'vogarligi asosida sodir bo'lmoqda.

41,4 foiz ajralishlarning asosiy aybdori erkaklar, 26,8 foizida ayollar, 24,5 foiz har ikki tomonning o'zaro kelisha olmaganligi sababi, 7,3 foizini esa kelin bilan qaynona o'rtasida kelishmovchilik bo'lganligi oqibatida oila buzilmoqda.

Hozirda qo'yidagi omillar oilaviy ajralishlarga ko'proq sababchi bo'lmoqda:

1. Er o'z oilasini moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llamasligi, erlik burchini, oila boshlig'i sifatidagi mas'uliyatli vazifasini bajarmayotganligi tufayli
2. Erning spirtli ichimlikka, narkotik moddalarni iste'mol qilishga berilganligi va natijada sog'lom oilaviy muhitning buzilishi oqibatida
3. Ayollarning o'z eriga nisbatan qo'pol munosabatda bo'lishi, erni er o'rniga ko'rmasligi, mensimasligi va oilada ayollik burchini his qilmasligi natijasida

4. Er-xotin o'rtasida o'zaro hurmatning yo'qligi, harakterning to'g'ri kelmasligi, oddiy muammo madaniyatini bilmasliklari.

Olib borilgan sosiologik tadqiqotlarimiz shunday biror qonuniyatli hodisani tasdiqlamoqdaki, unga ko'ra, oilaviy hayotda o'zlarini baxtli deb hisoblagan ayollar-bular ish joyida muvaffaqiyatga erishgan, har tomonlama qiziqishga va qobiliyatga ega bo'lgan, mustaqil, tashqi ko'rinishidan kelishgan go'zal bo'lgan ayollar emas, balki jiddiy yumshoq ko'ngilli, o'z oilasiga jonkuyar, chekinuvchan bir gapdan qoladigan ayollar ekan. E'tibor berilsa haqiqiy oilaviy baxtga erishish omillari asosan axloqiy munosabatlarga borib taqalar ekan.

Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida oila bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy muammolarni hal etib borishdan sosiologik ilmiy-amaliy tadbirlar ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Bizningcha, qo'yidagi tadbirlarni amalga oshirish zarur:

1. Viloyat va shahar hokimligi qoshida «oila xizmati» bo'yicha bo'lim tashkil qilish maqsadga muvofiqdir. Unda asosiy maqsad sosiologik tadqiqotlar natijalariga asoslangan holda oila mustahkamligini oshirish.

2. Nikohning rolini ko'tarish, nikoh oldida er-xotin mas'uliyati, burchiga bo'lgan talabni oshirish

3. Mahallaning, mahalla va guzarlarda oqsoqol-keksa kishilarning rolini, ularning ta'sirini oshirish

4. Qon-qarindosh-urug', og'a-inilarning rolini jamoatchilik bilan birga mas'uliyatini oshirish, oilaga ular ta'sirini oshirish yo'llarini amalga oshirish

5. Oila, nikoh, axloq, huquq va qonunning mutanosibligini takomillashtirish hozirgi muhim-dolzarb vazifalari bo'lib qolishi zarur.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, hozirgi ya'ni bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida respublikamizda oilaning ma'naviy, siyosiy kamolotga erishish uchun, iqtisodiy tomondan mustahkam, mukammal bo'lishi uchun keng imkoniyatlar berishga har tomonlama harakat qilayapti, buni biz O'zbekiston Respublikamizning «Konstitusiyasi»da ham ko'rdik, yuqorida ko'rsatilgan fikrlardan yetarlicha xulosa chiqarilsa, oilaning individual xususiyatlari harakteri,

xulq-odobi, qobiliyati mukammallashsa yaxshi fazilatlarga yo'naltirilgan bo'lsa, bunday oilani har tomonlama kamol topgan oila deb hisoblash mumkin.

II. OILA XO'JALIGINI IJTIMOY-IQTISODIY MOHIYATI VA UNING TADQIQ ETISHNING NAZARIY ASOSLARI.

II.1.Oila xo'jaligining ijtimoiy - iqtisodiy mohiyati.

O'zbekistonda bozoriy islohotlarnish chukurlashuvi "oila" maqomining ham ijtimoiy iqtisodiy jihatdan mazmuniga yangicha qarashlarni olib keldi. Bugungi kunda, «oila xo'jaligi», «uy xo'jaligi» va "xonadon xo'jaligi" tushunchalari vujudga keldi va ular mikroiktisodiyotning subyekti sifatida talqin kilinmokda. Birok, bu tushunchalar bir-biridan farqlanishi bilan, ularning har uchalagi ham oilalar faoliyatini talqin qilish bilan bog'liqdir. Ammo bu iqtisodiy tushunchalarning har birining xususiyatini hisobga olgan holda, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan mohiyati hozirgacha to'laligicha yoritilgani yo'k. Iktisodiy adabiyotlarda bu tushunchalarga nisbatan turlicha karashlar mavjud.

Oila tushunchasiga "O'zbek tilining izohli lug'ati" da keng ma'noda "Er-xotin. ularning bola chaqalari va eng yaqin tug'ishganlaridan iborat birga yashovchi kishilar majmui" degan ta'rif berilgan. Shu o'rinda keltirilgan ta'rifga monand, yana bir lug'aviy ta'rifni keltirib o'tishga to'g'ri keladi va unda oila tushunchasiga kuyidagicha ta'rif beriladi.

Yuqorida keltirilgan ushbu lug'aviy ta'riflarda, oilaning tarkibi va aloqadorlik belgilari o'z ifodasini topgan. Ammo bu ta'riflarda oilaga asosan iste'mol etuvchi subyekt sifatida qaralmoqda.

G.Shodiyevaning "oila xo'jaligi mulki va daromadini oshirish yo'llari" nomli ilmiy ishida unga qo'yidagicha ta'rif beriladi.

"Oila xo'jaligi" deganda, oila a'zolarining va butun jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy ehtiyojini qondirish hamda ma'lum darajada daromad olish uchun o'z mulkiga ega bo'lgan ishlab chiqarish, ish bajarish va xizmat ko'rsatish kabi faoliyatini amalga oshirish maqsadida bir-biri bilan er-xotinlik, bola-chaqalik va tug'ishganlik asosida birga yashovchi kishilar guruhi tushuniladi". Mazkur ta'rifda "oila" ning ham iqtisodiy, ham ma'naviy vazifasi yoritilgan bo'lib, unga "oila xo'jaligi" sifatida karash mumkin.

Bu tushunchalarga doir bugungi kunda bir guruh rus olimlari fikricha, V.Jerebin va T. Krasmlnikova «domashneye xozyaystvo» tushunchasini talqin etib, bunda «domashneye xozyaystvo» va «domoxozyaystvo» tushunchalariga aynan bir xil tushuncha sifatida qaraganlar.

Ushbu fikrga urg'u bergan holda A.So'rinov fikricha. bu tushunchalarga berilgan har qanday ta'rif, Rossiya statistika amaliyotida BMT tomonidan 1993 yilda tavsiya etilgan milliy hisoblar tizimida rasmiy jihatdan ishlatilishida alohila mazmun kashf etmaydi. Birok, bu tushunchalarni farqlash lozim ya'ni, «domoxozyaystvo» (umumiy byudjetga va turar joy (xonadon) ga birlashgan kishilar guruhi) va «domashneye xozyaystvo» (iqtisodiyot sektori elementi). Demak. ushbu tushunchalar nazariy jihatdan alohida mazmunga ega ekan. Bu tushunchalar haligacha Rossiya fanida munozarali bo'lib turibdi.

Ingliz tilida chop etilgan adabiyotlarda «household» tushunchasidan keng foydalaniladi. Ushbu tushuncha iqtisodiy jarayonlarni milliy hisoblar tizimida yozishda shuningdek, sosial - demografik kuzatuvlarni olib borishda qo'llaniladi.

Ko'rib chiqqanimizdek, rus iqtisodchilari asarlarida «domoxozyaystvo» tushunchasi oilalar to'g'risida barcha statistik ma'lumotlarni olishda xususan, oilalarning moddiy ta'minlanganlik darajasi. uy joy, iste'mol bilan bog'liq muammolarni, daromad va xarajatlar, axolini ro'yxatga olish hamda demografik muammolarni o'rganishda keng qo'llanilar ekan.

Bizning ilmiy tahlillarimiz ko'rsatmokedaki, ushbu nazariy va metodologik tavsiyalarni umumlashtirib, bu daromad turlarini milliy hisoblar talabi darajasiga keltirib izlanishlar olib borish maqsadga muvofiqdir.

Oila xo'jaligi daromadlari tahlili uning umumiy daromadlarini tarkibiy qismlarga ajratishni taqozo etadi. Endigi vazifa ushbu daromad turlarini har birini oila daromadidagi ulushini tahlil qilishdan iborat.

2008 yil mart oyida Toshkent shahrida kuzatilgan oilalar daromadining tarkibiy tuzilishi tahlil qilinganda, pul daromadlari o'rtacha 63297 so'mni tashkil etdi. Pul daromadlarining 30.2 foizini mehnat haqi olish bilan olinadigan daromadlarga to'g'ri keladi. Oila daromadlarining ancha qismini sotuvdan tushgan daromadlar tashkil etadi. Bu ko'rsatkich barcha aholi bo'yicha 32.9 foizini tashkil qilgan. Oila daromadlarining ijtimoiy to'lovlar hisobiga oladigan daromadlari 27.5 foizi to'g'ri keladi. Kuzatilgan oilalarda tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromatlar salmog'i yetarli darajada emasligi kuzatildi va bu bo'yicha qilingan daromad ulushi 11.7 foizini tashkil etmoqda. Oilarning moddiy jihatdan farovonligini ko'tarishda tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromadlar ulushi yildan yilga o'sib borishi lozim deb o'ylaymiz.

Ushbu oila xo'jaligi daromaddarini soliqqa tortilishi nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, uni uch guruxga bo'lish mumkin: oldin soliqqa tortiladigan sof daromadlar, soliqqa tortiladigan daromadpar va soliqqa tortidmaidigan daromadlar. Mazkur ishda daromadlarni ushbu yo'nalish bo'yicha hisobga olish zarurati yo'k deb o'ylaymiz.

Respublikamizda 2001 yildan e'tiboran, har bir oila a'zosi o'zlarining olgan daromadlari to'g'risida «Daromadlar deklarasiyasi» ni soliq idoralariga topshiradilar.

Kunlab chet davlatlar tajribasini o'rganish shuni ko'rsatadiki, oilalar mulkini baholash jarayonida yuzaga keladigan kelishmovchilik va norozilik choralarini bartaraf etish uchun mustaqil ekspert institutlarini vujudga keltirish lozim.

Xalqaro hujjatlar ta'biri bilan aytganda, oilaning eng zaruriy turmush darajasi oila a'zolari mehnatlarining yetarli darajadagi ish haqi bilan erishiladi. Bu hujjatlar mohiyatiga ko'ra insonning o'z hayoti uchun ishlab topshi insoning yuksak orzulariga mos keladi. Ijtimoiy imtiyozlar esa ikkinchi darajalidir. Shuning uchun agarda ish xakining soliq to'langandan keyin qoladigan qismi zaruriy turmush darajasiga yetmasa, unda soliqlar kamaytiriladi, yoki hayot darajasi byudjetdan ijtimoiy ajratmalar orqali tartibga solinishi kerak. Shuning uchun olingan daromadlardan hayot uchun zarur qismini chegirib tashlash o'ta muhimdir, masalan:

- oilaning ishlab topa olmaydigan qarovga muxtoj bo'lgan a'zolarini saqlashga ketadigan summalar:

- oila daromadi tarkibiga kirmaydigan boshqa daromadlar.

Mamlakatimiz soliq qonunchiligida ushbu chegirmalarning barchasi ko'zda tutilgan, lekin ular talab darajasidan ancha uzokdir.

Bizning fikrimizcha, qonunchiligimizga soliqqa tortilmaydigan minimum tushunchasini kiritish zarur bo'ladi. Bu soliqqa tortish tizimining adolatliligi xususiyatini oshiradi va deklarasiyalarni ixtiyoriy to'ldirib taqdim etilishini ta'minlaydi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida Respublikamizda xususan viloyatlar o'rtasida xam o'ziga xos narx - navo shakllanib kelmokda. Bu esa oilalarni har xil daromad olgan bo'lishi bilan ham turli iqtisodiy holatga olib kelishi mumkin. Masalan 1993-2006 yillar davomida ayrim tovar va xizmatlar narxining o'sganligi jumladan, non 1250 marta, go'sht 690 marta, guruch 1579 marta. o'simlik yog'i 1157 marta o'sganligi yuqoridagi holatga dalil bo'la olishi mumkin.

Bu holat albatta, mahsulotning shu hududda yetishtirilicha, aholining iste'mol qilish darajasiga, xullas. bozorda shakllangan talab va gaklifga bog'liq. Bu misollar oila xo'jaligida yetishtirilgan mahsulot hajmini ulardan keladigan daromad miqdorini, xarajatlarini hisobga olib borish zaruratini tug'dirmokda.

Bozor iqtisodida tabiatan kishilar o'ziga to'q va farovon yashaydi, biroq o'zaro farqlanadi. hamma farovon yashashi kerak, lekin oilaning farovonlik darajasi har xil bo'ladi. Bozor iqtisodidagi tengsizlik adolatli, chunki xamma topgan-tutganiga qarab daromadga ega bo'ladi, barcha qo'lidan kelgan ishni qiladi va topgani o'ziniki bo'ladi, ammo topish-tutish bir xil bo'lmagani uchun. shunga qarab daromad ham har xil bo'ladi. Ma'lumki, tadbirkorlar boshqalardan ko'p pul topishadi, lekin tadbirkorlik hammaning ko'lidan kelavermaydi. Noyob iste'dod ahlining katta daromad topishi tabiiy, chunki xamma xam estrada yoki kino yulduzi yoki buyuk olim, yozuvchi bo'lavermayli. Daromaddagi tengsizlik adolat deb baholanganda, albatta oilaning konuniy yo'l bilan topgan daromadining farqlanishi nazarda tutiladi. Fuqarolar, korxonalar yoki davlatning haqiga xiyonat kilib topilgan boylikni adolatli deb bo'lmaydi, albatga. Aksincha, u yashirin iqtisodiy faoliyat mevasi bo'ladi.

Bozor sharoitida ishlab topilgan daromadlar, albatta tafovutlanadi. Buni ikki omil yuzaga keltiradi:

1. Ishlab pul topishning o'zi bir xil emas.
2. Oila tarkibi, uning soni turlichadir.

Eng katta daromalni tadbirkorlar olsa. eng kichik daromad egasi eng kam nafaqa oluvchilar hisoblanadi. Agar 2006 yilda oilaning bir oylik o'rtacha daromadini 100 foiz deb olsak, unga nisbatan tadbirkorlar va fermerlar daromadi 169 foiz. ishchi va xizmatchilar daromadi 88.5 foiz bo'lgan. Demak. oilalarla jon boshiga turlicha daromadlar to'g'ri keldi. Buning sababi oilalarda daromad keltiruvchilar bilan boqimandalar sonining har xil bo'lishi va daromad keltiruvchilarning turli miqdorda daromal olishidir.

Ko'p bolali oilalarla onalar kam ishlagani sababli pul topish imkoni cheklangan, ammo bolalar yordamida tomorqadan daromad olish imkoni ko'p.

Ko'p bolali oilalarda ishlab pul to'lash imkoni cheklangani tufayli, ularning daromadida turli nafaqalar hissasi yuqori bo'ldi.

Oila daromadiga ta'sir etuvchi bozor omillarining kuchga kirishi oila sonining qisqarishiga sabab bo'lmokda. Oilalari daromad keltiruvchilar va boqimandalar o'rtasida nisbat optimallashtirish (eng ma'kul daraja)ga moyil bo'lmokda. Ammo yaqin kelajakda ham oila tarkibidagi farq daromadni farqlantiruvchi omil sifatida saqlanadi. Oila daromadlari farqlanishining samarasi ham bor, albatta. Qonuniy yo'l bilan boy bo'lishga yo'l ochish, pul topishga intilish. iqtisodiy o'sishga yordam beradi. Iqtisodda boylikni oshkora samarasi degan qoida bor. Bunga ko'ra, ma'lum toifa aholining boyib borishi boshqalarda ham boy bo'lish ishtiyoqini ko'zga, ularni faollikka undaydi. Shu bois halol boylikka hasad bilan emas, xavos bilan karash o'rinni bo'lar ekan. Bozor iqtisodida jamiyatni boy bo'lishi fuqarolarning boy bo'lishidan boshlanadi. Boy jamiyatda kambag'allik muammosi ham yumshok hal bo'ladi, chunki boylar kanchalik ko'p bo'lsa. shunchalik ular xisobidan kambag'allikni bartaraf etish mumkin.

Oila daromadi haqida gap ketganda, uning real daromadiga urg'u beriladi, chunki bu farovonlikni bildiradi. Bunda daromadning umumiy miqdori emas, balki jon boshiga to'g'ri kelgan miqdori muhim bo'ladi. Unga barcha manbalardan kelgan daromad, jumladan natural daromad ham kiritilishi talab qilinadi. Pul shaklidagi daromad nominal daromaddir. Real daromad bu qo'lga tekkan pulning xarid qobiliyati, ya'ni unga bozor nima berishidir. Oila daromadidan soliq badal puli kabi ajratmalar to'langandan so'ng qolgan pul qo'lga tekkan daromad hisoblanadi, unga nimalar xarid qilish imkonligi bozor narxlariga bog'liq. Hozir oila nominal daromadlarining o'sishiga shak-shubxa bo'lishi mumkin emas.

Real daromad miqdori ishlab chiqarishga nisbatan hosila bo'ladi, chunki ishlab chiqarilganiga qarab iste'mol etilishi kerak, iqtisodga tadbiquan «Ko'rpanga karab oyok uzat» degani shu bo'dadi. Ammo oilaning real daromadi ishlab chiqarishga nisbatan tezroq o'zgarishi mumkin, chunki daromad yaratilgan mahsulotni iste'mol etiladigan va kislarga ajralishiga bog'liq. Ulardan biri ko'p bo'lsa, ikkinchisi oz bo'ladi, albatta. Shu o'rinda xorijiy investisiyalar ahamiyatini

alohida ta'kidlash darkor. Davlat tomonidan ularga e'tiborni kuchaytirib, chet el investorlari uchun O'zbekistonda qulay sharoit yaratilishi mamlakatga xorijiy investisiyaning kirib kelishini kuchaytirdi.

Yuqoridagi talablardan kelib chiqqan holda, maqsadga muvofiq "oila" kategoriyasidan "oila xo'jaligi" kategoriyasiga o'tish ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan mazmunan ko'proq mos keladi. Bu esa xalqaro tashkiloglar va chet davlatlar tajribasiga ko'ra aynan to'g'ri keladi va "oila" kategoriyasi esa faqatgina qarindoshlik aloqalari asosidagi kishilar guruhi bilan cheklanib qolaveradi.

Bizning ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatmokedaki. «oila» tushunchasining bozor munosabatlari sharoitidagi ijtimoiy-iqtisodiy jihatdai mazmunining o'zgargarganligini hisobga olib, quyidagi xulosalarni chikarishga asos bo'ldi:

yangicha iqtisodiy munosabatlar sharoitida "oila" kategoriyasidan "oila xo'jaligi" kategoriyasiga o'tish ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan mazmunan ko'prok mos keladi:

bozoriy munosabatlar sharoitida oilaviy xo'jalik yuritish shakli mikroiqtisodiyotnish subyektiga aylanadi:

"uy xo'jaligi" tushunchasi "oila xo'jaligp" tushunchasiga nisbatan kengrok mazmuniga ega;

Oilalarning turli xayot faoliyatlarini tahlil qilishda oila xo'jaligi tarkibi, oiladan tashqarida yashovchilar, oila xo'jaligi xarajatlari va daromadlari to'g'risida aniq statistik ma'lumotlardan foydalanishni ham talab etadi. Zamonaviy oila rivojlanishining muhimligi va oila strukturasi ko'p kirralari bugungi kun talab darajasida o'rganilmasdan qolmoqda, bunga adekvat, haqiqiy va zaruriy ma'lumotlarning yetarli darajada emasligini sabab qilib ko'rsatsa bo'ladi. Bu esa o'z navbatida oilalarning ilmiy na amaliy tadqiqotini yanada rivojlantirishni talab kiladi.

Oila xo'jaliklarining ijtimoiy iqtisodiy ahvolini muntazam o'rganib borish maqsadida Samarqand viloyati statistika boshqarmasi har oyda oilalarnish tanlanma kuzatuvini olib bormoqda. Ushbu oilalarning o'rtacha tarkibi 6,6 kishini, shaxarda 3,4 va qishloq joylarda 7,2 kishini tashkil etmoqda.

Kuzatilgan oila xo'jaligi a'zolarining yoshi jihatidan tarkibiy tuzilishi quyidagicha: 15 yoshgacha 36,8%, 16 - 19 yoshgacha, 9,8%, 20 - 29 yoshgacha, 17,7%. 30 - 39 yoshgacha 3,4 %. 55- 59 yoshgacha 2.2%, 60 - 69 yoshgacha 3,7 %. 70 va undan yuqori 3,3 %.

Bozorli iqtisod sharoitida oila xo'jaligini mikroiqtisodiyotning subyektiv sifatida tadqiq qilish judda muhim amaliy ahamiyatini ko'rsatmoqda. Uni o'rganish nafaqat demografik bashoratlar, balki ijtimoiy - iqtisodiy siyosat chora-tadbirlarining aniq va umumiy strategiyasini ishlab chiqishda, mehnat bozorining shakllanishida, iste'mol tovarlari va xizmatlarini ishlab chiqishda, hamda ko'plab iqtisodiy muammolarni yechishda muhim ahamiyatga egadir.

Barcha oylalarda moddiy farovonlikni ta'minlash masalasi kun tartibida turgan muhim muammolardan biridir. Ammo bu muammoni birdaniga hal kilib bo'lmaydi. Buning uchun har bir oila a'zosi o'ta tadbirkorlik va akl bilan ish tutishi lozim. Yurtboshimizning "...bu vazifalarning negizida, amalga oshirishimiz lozim bo'lgan bu g'oyalarning poydevorida bitta narsa turibdi: u ham bo'lsa. xalqimizning xayo, darajasini yuksaltirishdir. Bunga avvalo, barcha jabhalarda boshlangan erkinlashtirish siyosatlarini amalga oshirish evaziga erishimiz mumkin. Nafaqat davlatning balki har qaysi oila, har qaysi odamning daromadini ko'tarish, turmush darajasi yaxshilash bo'yicha ko'p ishlarni qilishimiz darkor" degan nutqidan kelib chiqadiki, oilalardagi muammolarni hal qilish, hamda oilalarni tadqiq qilish zaruratining mavjulligini va uning ko'llamini oshirishning muhimligini yana bir bor ko'rsatib berdilar. Zero, oila xo'jaliklarining iqtisodiy imkoniyati ma'lum darajada cheklangan. Undan faqat samarali foydalangan taqdirdagina ko'zlangan maqsadga, ya'ni oila farovonligiga erishish mumkin. Bu farovonlikka erishish uchun esa, har bir oila xo'jaligida tadbirkorlikni yo'lga ko'yish lozim. Shu sababli biz keyingi bobda oila xo'jaligida tadbirkorlik daromadi tushunchasi mazmuni na tadbirkorlikni rivojlantirishning ijtimoiy iqtisodiy ahamiyatini o'rganishga bag'ishladik.

Oila jamiyatning, ijtimoiy iqtisodiy xayotning boshlang'ich bo'g'ini va mikroiqtisodiyotning subyekti sifatida. bozor munosabatlari sharoitida o'zining yangicha ta'rifi talab etmokda.

O'zbek xalqi o'z madaniyati va ma'naviyatida barkamol insonni tarbiyalab, voyaga yetkazishga katta e'tibor bergan va bermoqda. Inson borliqdagi barcha narsalar ichida eng ulug'i hisoblanadi. Insonni ulug'lash, uning qadriga yetish, ayniqsa, yosh avlodni kamolotga yetkazishda milliy-ma'naviy madaniyatimizning tiklanishi va rivojlantirilishi muhim o'rin tutadi.

Bu borada asosiy urg'uni oilaga berilishi ham bejiz emas. Yuqoridagi boblarda ta'kidlaganimizdek oila muqaddas xilqat sifatida ta'riflanishi, "Oiladan boshlanur Vatan" deb aytilishi oilaning hayot mazmuniga aylanganligi bu tarixiy jarayonlar vositasida bugungi kunimizga o'z an'analari, urf-odatlar bilan yetib kelganligi diqqatga sazovordir. Oilaning mazmun mohiyati uning ichidagi ijtimoiy-ma'naviy, demografik holatlar orqali asoslanadi va yashash turmush tarzini belgilaydi.

Oilaning shakllanishida, ijtimoiy-ma'naviy tarbiyasida, farzandlar kamolotida mahallaning o'rni katadir. Muhtaram prezidentimiz bu borada juda ko'p ijobiy fikrlarni aytganlarki, mahalla faolligi oila mustahkamligining tayanchi ekanligi har bir kunimizning shioriga aylanib qolgan. Har bir ota-ona farzandini barkamol bo'lib voyaga yetishini istaydi. Sharq mamlakatlari ulamolari, mutafakkirlari bola tarbiyasiga juda katta e'tibor berib, xalq pedagogikasining o'zagini shakllantirishga hissa qo'shganlar.

"Bir bolaga yetti mahalla javobgar" degan xalq naqli o'z ichiga ko'p ma'noni qamrab olgan. Mahalla, oila hamkorligi bo'lajak avlodning qanday bo'lishi, ota-ona va yaqin qo'shnilarning tanbehlari yo'nalishlarining barchasi faqat yaxshi niyatda bo'lishini ko'rsatgan.

Ota-bobolarimiz bolaga hyech qachon do'q-po'pisa qilmaganlar, zo'ravonlik ishlatmaganlar. Ohista shirin ovoz bilan "yomon bo'ladi" degan birgina ibora orqali tarbiya o'gitlarini singdirganlar, zo'ravonlik orqali o'z maqsadlariga erishganlar.

A.Qodiriyning “O’tkan kunlar” asarida Otabek va otasi, ota va ona o’rtasidagi munosabatlar hych bir urush-janjalsiz o’ta nozik davrdagi tarbiyaning murakkab va serqirra tomonlarini ochib bergan.

Oilada farzandning tarbiyaviy va ta’lim taraqqiyotiga quyidagi omillar sabab bo’ladi:

- A) ota-onalarning savodxonligi;
- B) oiladagi bolalar soni;
- V) oilaning to’liq va to’liqsizligi;
- G) ota-onalarning ma’naviy, axloqiy shaklanganligi darajasi;
- D) ota-onalarning kasbga nisbatan mas’uliyati;
- Ye) oilaning moddiy ta’minlanishi.

Ota-onaning ahilligi, mahalladagi katta yoshdagi kishilarning o’zaro ahilligi, kichiklarga g’amxo’rliqi oilaviy tarbiya asosini tashkil etadi. Bu ahillik munosabati har bir oilaga o’z ta’sirini o’tkaza oladi. Farzandlar buni ta’sirini sezgan holda munosabatini bildiradilar. Orqalarida aniq ta’sir etuvchi kuch borligiga ishonadilar va shu zaylda faoliyat ko’rsatadilar.

Shuni ta’kidlash kerakki, oilaviy tarbiyaning samaradorligi bolalarning tarbiyasi uchungina sarflangan vaqt bilan o’lchanmay, balki oilaning ijtimoiy bosqichi bilan ota-onalarning mahalladagi obro’si va ularning ma’naviy-axloqiy darajasi bilan aniqlanadi. Bundan ota-onalarning katta kishilarning bola tarbiyasi yuzasidan burch mas’uliyatini chuqur his qilishlari yetakchi mezondir. Aniqroq qilib aytganda, oila davrasida mahallada ota-onaning ijobiy fazilat va munosabatlari bolalarning to’g’ri tarbiyalanishini birlamchi va zaruriy shartidir. Shu bilan birga keng jamoatchilik, ya’ni mahalla xalq pedagogikasiga tayangan holda, tajribalarini yoshlar ongiga singdirish, oiladagi nizoli vaziyatlarini oldini olish, oilaning moddiy ahvoli, ma’lumotga ega bo’lishi lozim. Zero, bularning barchasi, yuqorida ta’kidlanganidek, bola tarbiyasiga bevosita ta’sir ko’rsatadi. Joylarda faoliyat ko’rsatayotgan mahalla fuqaro yig’ini raislari, xotin-qizlar qo’mitalari a’zolari, albatta, pedagogik-psixologik bilim va ko’nikmalarga ega bo’lishlari shart.

Xalqimizda “Yomonlikka qarshi kurash bo’lmagan joyda, yaxshilik tug’ilmaydi” degan ma’noli hikmat bor. Ayrim yoshlarimizni tarbiyasida ko’rinadigan ma’naviy-axloqiy nuqsonlarni bartaraf etish, ular ularda ma’naviy go’zallikni hosil qilish uchun qunt va qat’iyat bilan kurashish lozim. Bu muhim vazifani bajarish faqat ota-onalarning burchi, mas’uliyati bo’libgina qolmay, balki keng jamoatchilikning ham asosiy vazifasidir.

Oilada zo’ravonlik holatlarini oldini olish ham avvalo oilaning o’zidan boshlanadi. Buning uchun quyidagi yo’nalishlarga amal qilinishi zarur bo’ladi:

1. Oilada toza, sog’lom muhitni saqlash, ma’naviy tarbiyaga alohida ahamiyat berish;
2. Farzandlarni har birini o’z xarakter, fazilatlariga qarab muomala qilish;
3. Oilada ota-onaning bir-birlariga bo’lgan munosabatini buzmaslik, farzandlarga bu borada tazyiq o’tkazmaslik;
4. Farzandlarning qiziqishi va iqtidoriga qarab aniq bir kasbga yo’naltirish;
5. Oiladagi umumiy ijtimoiy holatlarni oilaga singdirib holda, iqtisodiy tomonlarga e’tibor berish;
6. Oiladagi konfliktlarni yaxshilik yo’li bilan hal qilish.

Yuqoridagi tamoyillar oilada zo’ravonlik holatlarini oldini olish, farzandlar tarbiyasini asosiy omillaridan ekanligiga yana bir bor e’tiborni qaratadi. Barcha ishlar mahalla fuqarolar yoig’inlari raislari, xotin-qizlar qo’mitalari a’zolarining pedagogik va psixologik bilim va ko’nikmalarga ega bo’lishlari bilan bog’liqligi zaruriy shart sanaladi. Xulosa qilib aytganda, farzandlarimizni yaxshi xulqli, odobli va madaniyatli qilib tarbiyalashda ularning yosh jihatlariga ruhiyatiga va tushunchalariga alohida ahamiyat berish lozim, chunki ularning psixologik xususiyatlarini bilmay turib tarbiyadan ko’zlangan maqsadga erishib bo’lmaydi.

1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan O’zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining XIV bobida xam oilaviy munosabatlarga katta ahamiyati berilgan. Uning 63,64,65,66 moddalari bevosita jamiyatning qolaversa iqtisodiyotning boshlang’ich bo’g’ini bo’lgan oilaviy munosabatlarga bag’ishlanadi.

II. 2.Oila xo'jaligini ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan shakllantirish jamiyat taraqqiyotining muhim omili.

Mustaqil taraqqiyot va rivojlanish yo'lidan borayotgan Uzbekiston Respublikasida huquqiy-demokratik davlat va erkin fuqarolik jamiyati qurish jarayonida uning yaxlitligini kafolatlovchi oila institutini mustahkamlash borasidagi davlatning istiqbolga yo'naltirilgai aniq siyosati olib borilmoqda. Amalga oshirilayotgan islohotlarning barchasi oila va har bir fukaroniig manfaatini ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Kuchli ijtimoiy siyosat olib borishdek muhim tamoyilni hayotga tatbiq etish uchun mustaqilligimizning dastlabki kunlaridan boshlab qator qonunlar, qarorlar qabul qilindi. Bularning asosiy maqsadi, mamlakatimiz rahbari ta'biri bilan aytganda, bozor iqqisodiyotiga o'tish jarayoiida el-yurtimiz hayotiga keskin salbiy ta'sir ko'rsatadigan ogir oqibatlarini imkon qadar kamaytirish, ijtimoiy himoyaga birinchi galda muhtoj bo'lgan aholi toifalari - ko'p bolali va kam ta'minlangan oilalar, yolg'iz keksalar, yetim-yesir va nogironlar, talaba va pensionerlarning manfaatlarini har tomonlama himoya etishdir.

Ma'lumki 1997 yilda boshlab yurtimizga kirib kelayotgan yilga nom berish an'anaga aylandi. Yillarga nom berishda albatta xalqimiz hayoti uchun ustuvor vazifalarni hal etish, «hayotimizda muhim ahamiyatga ega bo'lgan muayyan ijtimoiy masalani yechish maqsadida kuch va imkoniyatlarimizni safarbar qilib, katta-katta ishlarni amalga oshirish»dek muhim vazifa yotadi.

Mustakilligimiz davri tarixi kuchli ijtimoiy siyosat mamlakat rahbari faoliyatining negizida ekanini tasdiqlamoqda. Har bir yilni «Oila yili», «Inson manfaatlarini yili», «Qariyalarni qadrlash yili», «Mahalla yili», «Ayollar yili» kabi

nomlar bilap atalishi va har bir yil uchun alohida Davlat dasturlari qabul qilinishi, natijada turli xil xayr-saxovat tadbirlari xalqimiz tomonidan olqishlanib kelinmoqda. Yillar davomida e'lon qilingan yillarning barchasi o'zining ma'no va mazmuni bilan bir-biriga juda yaqin, ular yildai yilga bir-birini to'ldirib, mantiqiy va uzviy suratda davom etib kelmokda. Qaysi yilga qanday nom bsrilishidan qat'iy nazar bir narsani unutmash kerakki, ularning markazida inson, uning huquqlari, manfaatlari yotadi.

Mamlakatimizda oila barqarorligi -jamiyat barqarorligi sifatida e'tirof etilib, shaxsning oilada kamol topishi uchun barcha hukukiy asoslar yaratilgan. Jumladan, Uzbekiston Respublikasi Konstitusiyasida oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga egadir, deb belgilab qo'yilgan.

Oilani davlat tomonidan muhofaza qilinishi Uzbekiston Respublikasining Oila, Fuqarolik va Mehnat kodekslarida. «Aholini ish bilan ta'minlash to'grisida»-gi, «Fuqarolar sogligini saqlash to'grisida»gi, «Xotin-qizlarga qo'shimcha imtiyozlar to'grisida»gi kabi kator qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan.

Aholining ijtimoiy himoya qilish ko'lamlarini kengaytirish va kuchaytirish, aholining muhtoj toifalari va oilalarga. nogironlar va yolgiz keksalarga anik, tabakalashtirilgan tarzda yordam ko'rsatish samaradorligini oshirish, aholi daromadlari darajasidagi farqlarni keskin oshishiga yo'l qo'ymaslik, jamiyatda hamjihatlik, ezgulik va mehr-shafqat muhitini qaror toptirish bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan chora-tadbirlar kompleksi amalga oshirilib kelinmoqda. Bunga misol kilib Uzbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 23 yanvarda PQ-573-sonli «Ijtimoiy himoya yili Davlat dasturi to'grisida»gi karori e'lon kilinganligini ta'kidlash mumkin.

Ma'lumki, ijtimoiy himoya - bu fuqarolarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, huquq va erkinliklarni ro'yobga chiqarilishi uchun qulay sharoit yaratish maqsadida davlat va jamiyat tomonidan amalga oshiriladigan iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy chora-tadbirlarni majmui bo'lib, u aholining turmush darajasini uzluksiz yuksaltirish maqsadini ko'zlaydi. Bunday maksadni amalga

oshirish esa bozor munosabatlari sharoitida aholini kuchli ijtimoiy himoyalash davlat siyosati ro'yobga chiqarilishini ta'minlash, aholini muhtoj bo'lgan qatlamlariga ko'mak berishni tashkil etish, ijtimoiy himoyani amalga oshirish jarayonidagi barcha munosabatlarni tartibga solish kabi vazifalarni bajarilishini taqozo etadi.

Shu ma'noda olganda oxirgi yillarda ijtimoiy sohaga oid qabul qilingan qator qonunlar asosan oilani qo'llab quvvatlash orqali uning a'zolarini ijtimoiy jihatdan muhofaza qilishga qaratilmoqda. Jumladan, «Bola huquklari to'g'risida»gi, «Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalardan va kasb kasalliklaridan majburiy davlat ijtimoiy sug'urtasi to'grisida»gi, «Iod tanqisligi kasalliklarining oldini olish to'g'risida»gi qonunlarda asosan oila manfaatlari ustuvor kilib belgilang'an.

Mamlakatimizda oila muhofazasiga karatilgan qator qonunlar va qonunosti hujjatlari qabul kilinishi bilan birga ularni amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar ham ishlab chikilgan. Bular jumlasiga yuqorida qayd etilgan davlat dasturlari bilan birga ular asosida ishlab chiqilgan hududiy dasturlar kiradi. Undan tashqari turli xil nodavlat tashkilotlari, jamoatchilik, mahalla va boshqa o'zini-o'zi boshqarish organlari ham oila masalasiga muntazam yondashadilar. Buning sababi oilaning mustahkamligi - bu vatan, yurt mustahkamligi hakidagi tasavvurlarning bizning ongimizda kadimdan chuqur ildiz otganligidadir. Shu o'rinda shuni ta'kidlash zarurki, muqaddas qadriyatimiz bo'lmish oilani mustahkamlash, bu boradagi tariximizni o'rganish, uni targib va tashviq qilish ishlari muntazam davom ettirilishi, bunda asosan yoshlarimiz tarbiyasiga e'tiborni qaratishimiz zarur. Ommaviy axborot vositalari, joylardagi uchrashuvlar, turli tadbirlar orkali bugungi kundagi oila munosabatlarining muammolarini hal etishda tarixiy oila munosabatlari tarziga to'xtalish, uning eng qimmatli, ilgor jihatlarini zamonaviy me'yorlar bilan uygunlashtirishga harakat qilish lozim. Fikrimizcha oila masalasiga e'tibor orqali jamiyatimizdagi barqarorlik va hamjihatlikni yanada mustahkamlagan bo'lamiz.

Mustakillik yillarida oila va nikoh munosabatlarini mustahkamlashning ahamiyatiga alohida urg'u bergan yurtboshimiz I.A.Karimov o'zining «Yuksak ma'naviyat -yengilmas kuch» kitoblarida «... oila institutini jamiyatning boshqa muhim ijtimoiy tuzilmalari, yurtimizdagi ma'naviy o'zgarishlar bilan uyg'un tarzda rivojlantirish, uning nufuzini oshirish masalasiga davlat siyosatining eng muhim va ustuvor yo'nalishi sifatida doimiy e'tibor berib kelmokdamiz»¹ deb ta'kidladilar.

Muhtaram yurtboshimiz boshchiligida hukumatimiz tomonidan yurtimizda oila institutini amalda mustahkamlash, uning nufuzini har tomonlama oshirish, huquqiy asoslarini barqarorlashtirish masalasida talay ibratli ishlar amalga oshirildi va oshirilmoqda. Oilaning har bir a'zosi barobarida aynan unda kamol topayotgan yosh avlodga alohida e'tibor berilayotganligi, 2008 yilning «Yoshlar yili» deb e'lon qilinish, maxsus davlat dasturi qabul qilinganligi va yaratilayotgan imkoniyatlar davlatimizning g'amxo'rligining yaqqol ifodasidir.

Oilalarimizda har tomonlamo sog'lom muhit hukmron ekan, farzandlarimiz barkamol voyaga yetadilar, fuqarolari barkamol jamiyat esa hech qachon zavob topmaydi. Jamiyat tayanchi sog'lom oila bo'lar ekan, farzandlari millat darajasida tafakkur qilishga qodir bo'lgan bunday yurt barqaror taraqqiyot yo'lidan og'ishmaydi, amalga oshirayotgan barcha islohotlarimiz albatta samara beradi.

Darhaqiqat, yurtimizda 17 yillik mustaqillik davrida oila va nikoh munosabatlarini takomillashtirishning qonuniy bazasi yaratildi. 1998 yilda qabul qilingan «Oila Kodeksi»da oila munosabatlarining barcha jabhalari reglamentasiya qilingan. 2007 yilda Oliy Majlis Senati tomonidan uning 49 – moddasiga tegishli o'zgartirishlar kiritildi, qolgan moddalarning amalda ishlashi ham muntazam monitoring qilinmoqda. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan boshqa qator Kodeks va qonunlarda, Prezident Farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlarida ham bevosita oila a'zolarining, jumladan, hotin-qizlar va bolalarning manfaatlarini himoya qilingan.

¹ I.A.Karimov «Yuksak ma'naviyat -yengilmas kuch» T. 2008 y. 112-b

Shuni alohida ta'kidlash joizki, mamlakatimiz taraqqiyotida muhim va unutilmas voqeya 1998 yilda ro'y berdi. Muhtaram yurtboshimiz tashabbuslari bilan ushbu yilning «Oila yili» deb e'lon qilinishi barcha jamoatchilikning diqqat-e'tiborini oila institutiga qaratgan bo'lsa, Vazirlar Mahkamasining maxsus 54 – qarori bilan 2 fevral kuni Respublika «Oila» ilmiy – amaliy markazining tashkil etilishi bu masala amalda ham davlatimizning ustuvor siyosati yo'nalishidan biri sifatida oila manfaatlarini himoya qilish ekanligini isbotladi.

Bugungi kunga kelib, «Oila» markazlari oila muammolarini o'rganuvchi va ularning amaliy yekchimini izlab, manfaatdor tashkilotlarga o'z tavsiyalarini berib kelayotgan, Fan va texnologiyalar Markazi tomonidan e'lon qilingan turli loyihalarning xulosalarini amaliyotga tatbik etadigan noyob, o'ziga xos tashkilotlardan biriga aylandi. Uning tasarrufida faoliyat ko'rsatayotgan aspirantura bo'limi oilashunoslik borasida oliy malakali mutaxassislarni tayyorlayotgan maktab hisoblanadi. 1999 yildan buyon 13.00.01 - umumiy pedagogika, pedagogika va ta'lim tarixi hamda 19.00.05 - ijtimoiy psixologiya, etnopsixologiya ixtisosliklari bo'yicha yukori malakali kadrlar tayyorlayotgan aspiranturada jami 55 iafar yoshlar tahsil olib. ularning 17 nafari bugungi kunga kelib fan nomzodlari ilmiy darajalariiii olib. xalk xo'jaligining turli tarmoklarida samarali faoliyat yuritmokdalar.

Oilashunoslarning turli bo'gin maorif muassasalari, jumladan, oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari bilan hamkorligi bois ayni paytda poytaxtdagi kator oliygohlarda oilaviy tarbiya va ta'lim bilan shugullanuvchi kadrlar taysrlovchi hamda mahallalarda oila ma'naviyati va madaniyati masalalari bilan shugullanadigan ijtimoiy xodimlar ixtisosliklari ta'sis etildi. Ular joylarda mahalla fukarolari yig'inlari koshida joriy etilgan diniy ma'rifat va axlokiy-ma'iaiy masalalar bo'yicha mahalla maslahatchilari bilan oilaviy masalalarni joyida hal kilish, yolg'iz, nochor, noto'lik oilalarni ijtimoiy muhofaza kilish, oilaviy nizolariii bartaraf etish, yarashtirish komissiyalari bilan ajrim holatiga yakinlashib kolgan oilalarni saklab kolish kabi savobli ishlarni yo'lga qo'yib kslmokdalar. Maktab ta'limi dasturiga o'n olti soatlik oilada sog'lom turmush tarzi va sharkona turmush

madaniyatining iodic jihatlarini yoshlarga o'rgatuvchi «Tibbiyot asoslari» kursi kiritildi. Bu kurs mohiyatan oila uchun ijtimoiy tibbiyotdir. Urta maxsus ta'lim muassasalari bo'lmish kasb-hunar kollejarida esa «Oila isixologiyasi» kursi joriy etilib, o'kitilmokda. Bu ishlarning barchasi yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda katta amaliy ahamiyat kasb etmokda. «Oila» markazi o'z navbatida ushbu o'kuv yo'nalishlari va ota-onalar uchui «Oila kutubxonasi» ruknida har yili o'nlab o'kuv ko'llanmalari, darslik. risola va bukletlar tayyorlab nashr etmoqda.

Republika xotin-kizlar ko'mitasi. «Oila» markazlari, «Soglom avlod uchun», «Ekosan» kabi xalkaro xayriya jamgarmalari. viloyatlardagi «Oila» markazlarining oxirgi yillardagi say'i-harakatlari amalda tanlangan yo'lning, oila va onalikni muhofaza kilish mexanizmining to'gri va okilona tanlanganligini. oila salomatligini kafolatli mustahkamlash borasida amalga oshirayotgan ishlarimiz samara berayotganligini ko'rsatib turibdi. Shuni qat'iy bir asos bilan aytish mumkinki, bugun O'zbekistopda oila va nikoh munosabatlaripi mustahkamlash, oilani kadriyat sifatida butun jamiyat tomoiidai e'tirof etilishini ta'minlovchi milliy mexanizm ishlab turibdi. Bundan tashqari, ushbu munosabatlar konun yo'li bilan ham kafolatlanganki. joylardagi ijro hokimiyatlari barcha chora-tadbirlarni muayyan karor va ko'rsatmalar asosida izchil amalga oshirmoqda.

Mamnuniyat bilan ta'kidlash mumkinki, O'zbekistonda yildan yilga nikohga kirish istagini bildirayotgan yoshlar soni ortib bormoqda. Statistik ma'lumotlardan mustakillik yillarida aholiing tabiiy o'sish sur'atlari va tugilish koeffisiyentlari kamayib borayotganligiga karamay, nikohga kirish koeffisiyenti ortib, ajrimlar soni kamayib borayotganligini ko'rish mumkin.

Bu bir tomondan, rasmiy nikohga nisbatan aholida huquqiy madaiiyatning tobora ortib borayotganligi, ikkinchi tomondan, oila qadriyat sifatida aholi ongiga singib borayotganligi hamda qonuniy nikohning ijtimoiy jihatdan muhofazada ekanligining tan olinayotganligidan darak beradi.

Ta'kidlash joizki, 1991-2007 yillar mobaynida respublikada jami 3 million 245400 ta nikoh holatlari kayd etildi, ya'ni shu davr oraligida salkam 7 million nafar yoshlar rasmiy nikohga kirib, mustakil hayot ostonasini bosdilar.

Oila va nikoh borasidagi ijobiy tendensiyalardan yana biri - bu yigit va qizlarning nikohga kirish yoshidagi o'zgarish-lardir. Oxirgi yillarda o'tkazilgan tadqiqotlarimizdan ma'lum bo'lishicha, birinchi marta nikohga kirgan yigitlarning o'rtacha yoshi 24,3 va qizlarniki 21,5 yoshni tashkil etmokda. Zero, agar eslaydigan bo'lsak, 90-chi yillarning boshida nikohning yosharishi ba-shorat kilingan edi.

Xususan, 1991 yilda nikohga kirgan jami qizlarning 8,6 foizi 18 yoshga to'lma-gan edi, bu ko'rsatkich 2006 yilda 2,4 foizni tashkil etdi. Bu nikohga kirgan kelinchak-larning 84 foizidan ziyodi 18-24 yoshda tur-mush qurmoqda, demakdir. Mustakillik yil-larida nikohga kirgan yigitlarning yosh guruhlarida ham o'zgarishlar ro'y berdi. Xususan, 20-24 yosh guruhida nikohga kirgan yigitlar salmogi 15,6 foizga qisqardi. 25-29 yosh guruhidagilarda esa u deyarli 2 martabaga ortdi. Shuningdek, 30 va undan katta yoshda oila qurgan yigitlar salmogi ham yil sayin oshmoqda.

O'zbekistonda oxirgi yillarda axoli soniga nisbatan nikoh va ajrimlarning o'sish dinamikasi

Yillar	Aholi (ming)	Nikoh		Ajrim	
		Abs.r	koef.(1000 ax nis)	Abs.r	koef.(1000 ax nis)
2004	25707.4	15936,	6,06	17393	0,68
2005	20012.3	183991	7,07	16302	0,63
2006	26312.6	208423	7,92	11433	0,43
2007	26500.0	254437	9,6	13806	0,52

Markaz tomonidan amalga oshirilayotgan loyihalar, aholi o'rtasida amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar. yosh oila a'zolari, kelin-kuyovlar bilan o'tkazilayotgan maksadli o'kuvlardan ko'zlangan asosiy maqsad - oilaning barqarorligini ta'minlovchi omillar bilan aholini tanishtirish, ularni tahlil qilish va

oilaning tarbiyalovchi, ma'naviy va ma'rifiy makomini yanada ko'tarish orqali turmush farovonligiga erishishdir. Urni kelganda ta'kidlash joizki, 10 yil mobaynida oilaning turli muammolarini o'rgapishga bag'ishlangan 2 ta fundamental, 16 ta tatbiqiy va 2 ta innovasion, 8 ta xalqaro loyihalar markaz olimlari tomoidan muvaffaqiyatli bajarildi va bajarilmoqda.

Respublikamizning turli hududlaridagi tugilish sur'atlari va sifati avvalo. xotin-kizlarning ma'lumotlilik darajasi, ularning shaharda yoki qishlokda yashashi. rasmiy nikohda bo'lish yoki bo'lmasligi ko'rsatgichlariga mosdir. Shuiga ko'ra, bizda oilalarning ko'pbolali turidan o'rtacha yoki kam bolali turiga o'tish kuzatilmokda.

O'zbekistonda oilalarning farzandlar soniga ko'ra differensiasiyasi

Bola soniga kura oila turi	Bolalar soni	Foizda
Ko'p bolali	7-8 nafar	5,9
Ko'p bolali	5-6 nafar	17,4
Urtachasonli oila	3-4 nafar	38,1
Kam sonli	1-2 nafar	36,5

Oilalarning farzandlar soniga ko'ra tarkibiga e'tibor bersak. oxirni yillarda o'rtacha sonli farzandlari bor oilalar miqdori ortib bormoqda, keyingi o'rinda 1 yoki 2 nafar farzandi bor bo'lgan kichik oilalar turadi (4-jadval).

Lskin oilani mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish borasida muammolar va dolzarb tezda xal kilinishi lozim bo'lgan masalalar yo'q emas.

Viloyatlarda viloyat hokimliklari tashabbuslari bilan 1998 yildan buyon faoliyat yuritib kslastgan «Oila» ilmiy-amaliy markazlari oilalar borasidagi har bir muammoni har bir hududning o'ziga xosligidan kelib chiqish o'rganishlari va birinchi navbatda nikoh ajrimlarining kamayishi, notinch va nokobil oilalarning kamayishi orkali xotin-qizlar jinoyatchiligi, voyaga yetmaganlar o'rtasida qonunbuzarliklarga yo'l ko'ymaslik choralari izlashlari, o'z joniga qasd qilish, deportasiya, nokonuniy migrasiya, odam savdosi kabi qator salbiy holatlarni bartaraf etish, ular profilaktikasi bo'yicha samarali usullarni izlab topishlari lozimdir.

Bu ishlarni ular joylardagi xotin-qizlar qo'mitalari, mahallalardagi diniy-ma'rifat va ma'naviy-axlokiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchilar bilan ham-korlikda va hamjihatlikda amalga oshirishlari. yurtimizning ozod va obod. xalkimizning hayoti farovon bo'lishiga o'z hissalarini ko'shishlari shart.

Zyero. muhtaram Prezidentimiz ta'birlari bilan aytgaida, «Har kaysi millatning o'ziga xos ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda. hych shubhasiz. oilaiig o'rni va ta'siri beqiyosdir. Chunki insonning eng sof va pokiza tuygulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bagrida shakllanadi». Shunday ekan biz, oilashunos olimlar va joylarda oila manfaatlarini amalda himoya kilishdek savob ishga qo'l urgan mutaxassislar o'z oldimizga dadil vazifalar qo'yilishimiz darkor.

Birinchidai, farzandlarimizii milliy tarbiya, axloq-odob, yuksak ma'naviyat asosida voyaga yetkazishning dolzarbligini inobatga olib, oila muhiti va undagi ma'naviyatni barkarorlashtirishping eng ta'sirchan va amalda sinovlardan o'tgan usul va yondashuvlarni takomillashtirish;

Ikkinchidan, bola ongi shakllanishining ilk maskani oila ekanligidan kelib chikib, ota-onalikning tarbiyaviy imkoniyatlarini yanada kuchaytirishning moddiy va ma'naviy asoslarini ilmiy-amaliy jihatdan chuqur o'rganish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish;

Uchinchidan, milliy mentalitetimiz xususiyatiga ko'ra bola shaxsining tarbiyalanganlik darajasini belgilashda mahalla omilining roli katta. «Mahalla - ham ota, ham ona» degan naql ham bejiz emas. Shu bois mahallalar koshida eng faol, ko'pni ko'rgan, ma'naviy darajasi yuksak fuqarolarning potensiallaridan foydalangan holda turli o'quv markazlari, to'garaklar, Klublar, ijtimoiy ko'nikma maskanlari, maslahatxonalar, «Ishonch telefonlari» kabi ijtimoiy institutlar tashkil etish va ular samaradorligini monitoring qilish uslublarini takomillashtirish;

To'rtinchidan, soglom turmush tarzini keng targibot qilish, karindosh-uruglar o'rtasidagi nikohlarning barham topishiga erishish, asr balosi hisoblanmish OITS va SPID epidemiyasining oldini olishda oila instituti va onaning rolini ko'tarishga bagishlangan fundamental va amaliy tadqiqotlar o'tkazish zarur. Bu

ishlarda bizga muhtaram Prezidentimizning oilani, onalik va bolalikni ijtimoiy jihatdan muhofaza qilishga oid ko'rsatmalari, Farmon va Farmoyishlari, amaldagi qonunlar, Vazirlar Mahakamasining qarorlari dasturilamal bo'ladi.

Uzbekiston Respublikasida shaxsning har tomonlama kamol topishi uchun u ma'naviy soglom oila muhitida, tinchlik, birdamlik, tenglik ruhida tarbiya olishi va shakllanishi uchun barcha sharoitlarni yaratilishining barcha choralari ko'rib kelinmokda. Buning uchun eng avvalo oilaning makomini belgilash, yosh oila a'zolarini qo'llab-quvvatlash, oila a'zolari o'rtasidagi va oila bilan bogliq barcha munosabatlarni tartibga solish maqsadida huquqiy asoslar yaratildi.

Uzbekiston Respublikasi Konstitusiyasining aloxida XIV bobi oilaga bag'ishlangan bo'lib, unga ko'ra oila jamiyatning asosiy bo'ginidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga egadir (Konstitusiyaning 63-moddasi). Oilaning muqaddas ekanligi yana shu bilan izohlanadiki, u ikki shaxsning mutlaq erkinligi, ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligi asosida tuziladi (63-modda). Farzandlar ota-onalarning nasl-nasabidan va fukarolik holatidan qat'i nazar qonun oldida tengdirlar (65-modda). Bu qoidalar ham konstitusion norma hisoblanib, u azaliy qadriyatlarimizdan bo'lmish oilaning ikki shaxsning roziligi bilan tuzilishi shart ekanligi haqidagi qoidaning inson huquqlari ta'miilanishining zaruriy sharti bo'lgan teng huquqlilik prinsipi bilan uygunlashuvi sifatida namoyon bo'ladi.

Uzbekiston Respublikasining Konstitusiyasida ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majbur ekanligi, davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onasining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlashi, bolalarga bag'ishlangan barcha xayriya faoliyatlarini ragbatlantirishi belgilab qo'yilgan (64-modda).

Oilani qo'llab quvvatlash va bola manfaatlarini muhofaza qilishga qaratilgan konstitusiyaviy normalar kator qonun va qonun osti hujjatlarida o'z aksini topgan¹. Jumladan, «Xotin-qizlarga qo'shimcha imtiyozlar to'g'risida»gi qonunda yosh bolali, ko'p bolali ayollarni ishga qabul qilishda imtiyozlar belgilangan. Emizikli bolasi bor ayolga qo'shimcha imtiyozli tanaffuslar berilishi shartligi, yangi oila

¹ Оила маънавияти. 2008 й.

qurayotgan yoshlarini bepul tibbiy ko'rikdan o'tkazish, yosh oila a'zolari, homilador ayollar, voyaga yetmagan bolalar bepul tibbiy xizmatlardan foydalanish huquqiga ega bo'lishi va ta'minlanishi haqidagi kafolatlar mustahkamlab qo'yildi. Oilani, onalik va bolalikni muhofaza qilishga qaratilgan qonunlar bilan birga qator qonun osti hujjatlari qabul qilingan bo'lib, ular jumlasiga - Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 21 sentyabrdagi «Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar faoliyatini takomillashtirish to'grisida»gi, 2002 yil 25 yanvardagi «Ayollar va o'sib kelayotgan avlodning salomatligini mustahkamlash bo'yicha qo'shimcha choratadbirlar to'grisida»gi, 2002 yil 25 yanvardagi «2002-2003 yillarga mo'ljallaigan aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamini manzilli himoya qilish Dasturini amalga oshirish choralari to'grisida»gi, 2004 yil 7 sentyabrdagi «Bolalarni ijtimoiy ko'nikma markazini tashkil qilish to'grisida»gi qarorlarini misol qilish mumkin.

Qabul qilingan hujjatlarda xalqaro umume'tirof etilgan prinsiplarning milliy qonunchiligimizda aks ettirilgan. Masalan, «Bola huquqlari to'grisida»gi xalqaro Konvensiya qoidalariga muvofiq, Uzbekiston Respublikasi BMTning bola huquqlari Qo'mitasiga muntazam ravishda Konvensiya qoidalarini bajarish yuzasidan davriy hisobotlarni taqdim etadi.

Alohida ta'kidlash kerakki, bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha qabul qilingan xalqaro majburiyatlarni bajarish maqsadida O'zbekiston Respublikasida xalqaro-huquqiy me'yorlarni milliy qonunchilikka implementasiya qilish bo'yicha yetarli darajada katta ishlar olib borildi. Amaldagi qonunchilikda bola huquqlari va manfaatlari, shuningdek, ularning himoyasiga alohida o'rin berilgan.

Shunga qaramasdan, Uzbekistonda bola huquqlari, ularning himoyasi bo'yicha davlat kafolatini ta'minlovchi alohida qonunchilik hujjatini qabul qilish zarurati yuzaga keldi. Mazkur qonunchilik hujjati mamlakat rahbariyati tomonidan o'sib kelayotgan avlodga berilayotgan e'tiborni yanada oshirishni nazarda tutgan holda bola huquqlarini amalga oshirish va himoyalashni mutlaqo yangi bosqichga ko'tarish imkonini yaratdi. Yana shulardan ksilib chikib. 2008 yilda «Bola huquqlari kafolatlari to'grisida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul kilindi.

Qonunning o'ziga xosligi uning majmuaviyligidadir, ya'ni mazkur hujjat «Bola xukuklari to'grisida»gi Kopvensiya. shuningdek, Uzbekiston Respublikasi Koistituziyasi va konunlarida nazarda tutilgan bola xukuklarining asosiy va ko'shimcha kafolatlarini mustaxkamladi. Qonun o'z xususiyatiga ko'ra o'ziga xos «Bolalar Konstituziyasi» bo'lib xisoblanadi.

Rsspublika rahbariyati tomonidan ko'rilayotgan ana shu chora-tadbirlardan asosiy maksad birinchi navbatda oilani unda tarbiya topayotgan bolalarni xar kandy sharoitda har doim himoya kilish, maksadli yoki manzilli ko'makka muhtoj bo'lganlarga yordam berish ijtimoiy himoya kilish orkali sog'lom avlodni voyaga yetkazishdir. Buning uchun nafaqat bolalar hukuklarini kafolatlash, balki yosh oilani muntazam ko'llab-kuvvatlash maksadida 2007 yilda Uzbekiston Respublikasi Prezidsntining «Yosh oilalarni moddiy va ma'naviy ko'llab kuvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'grisida»gi Farmoni kabul kilindi. Farmonga ko'ra, yosh oila unda tarbiyalanastgan yosh avlod uchup talay imtiyoz va rivojlapish uchun imkoniyatlardan tashqari, yosh oilalarni ma'naviy jihatdan ko'llab-kuvvatlashni kuchaytirish, sshlarda o'zi kurgan yangi oila uchun gurur va mas'uliyat hissini. ota-onaga. ksksa avlod vakillariga hurmat-ehtirom. mehnat kilish va xalqimizning boqiy ma'naviy qadriyatlarini ruxida bola tarbiyalashga intilish tuygularini shakllantirish, fukarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari orqali kam ta'minlangan oilalar farzandlari bo'lgan yoshlarga, shu jumladan nikohdan o'tish va to'y marosimlarini o'tkazishda ko'shimcha moddiy yordam ko'rsatish barcha mutasaddi davlat organlari va tashkilotlarining eng muhim vazifasi kilib belgilandi va ularning moddiy asoslari ham yaratildi.

Shu o'rinda yukorida ta'kidlapgan barcha chora-tadbirlarning ijro etilishida muhim vazifalar mahalliy hokimiyat organlari zimmasida ekanligipi alohida ta'kidlash zarur, negaki davlat hokimiyati organlari joylarda tegishli hudud majmuaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi boshkaruvini amalga oshiradi, ularning vazifasiga xalq ta'limi, maktabgacha va maktabdan tashqari tarbiya, shuningdek, bolalarni maktab-iitsrnatlar. bolalar uylari, maxsus maktablarda tarbiyalash. maktablar va bolalarning maktabgacha ta'lim muassasalari rivojini ta'minlash.

ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, xomiylik va vasiylik organlari ishini yo'naltirish kabi masalalar kiradi. Mazkur chora-tadbirlarning barchasii zamirida oilani va unda tarbiyalanayotgan bolalarni ijtimoiy himoya qilish yotadi. Ularning ijrosini ta'minlashda barchamizning mas'ul ekanligimizni bu borada jamoat nazoratini kuchaytirish zarurligini kayd etish joiz. Zero, oila bola manfaatlari ro'yobga chiqadigan himoya qilinadigan, uning huquqlari amalga oshadigan maskan. Oilani muhofaza qilish orkali biz buyuk kslajagimiz yaratuvchilarini vorislarini voyaga yetkazamiz.

Jahonda yuz berayotgan globallashuv jarayonining mohiyatini atroflicha anglab yetish muhim ahamiyatga egadir. Global muammolar va globallashuv jarayonlari asosan XX asrning mahsuli bo'lsa-da, «global» atamasi qadimdan fanda ma'lum. Globallashuv tushunchasi fransuzcha global so'zidan olingan bo'lib, eng umumiy, umumjahon, yer sharini qamrab oluvchi mazmunini anglatadi.

Globallashuv jamiyat tarakkiyotining integrasiyalaiishi natijasida hamda iqtisodiy, mafkuraviy va ekologik axborot tizimlarining rivojlanishi jarayonida yuzaga keladi. Ta'kidlash kerak, kommunikasiya vositalaridagi tub o'zgarishlar ham globallashuv jarayonining tezkorlik bilan rivojlanishini ta'minlamoqda. Globallashuv jarayoni ba'zi mamlakatlarning o'z maqsadlarini amalga oshirishida qo'l kelmoqda. Turli axborot yutuqlaridan foydalangan holda kadriyatlarimizga zid bo'lgan tamoyillarni informasion tajovuz qilish yo'li bilan mamlakatimizga, yoshlar ongiga singdirishga urinishlar mavjud. Masalai, demokratiyani eksport qilish, uning qandaydir universal modelini joriy etish kabi tendensiyalar asnosida diniy ekstremistik goyalar, xalqaro terrorizmni mamlakatimiz sarhadlariga kiritishga urinishlar mavjud. Bu urinishlar mohiyatida esa yoshlarda avvalo fikr karamligini shakllantirish yotadi.

Globallashuv jarayoni ba'zi hollarda axborot tajovuzini niqoblashda, uning mohiyatini jamoatchilikdan yashirishda o'ziga xos mafkuraviy shakl vazifasini bajaradi. Dunyoning mafkuraviy manzarasida muhim o'rii egallagan bu jarayonni, ya'ni axborot tajovuzlarining mohiyatini ochib berishda ma'naviy-ma'rifiy tarbiya muhim ahamiyatga egadir.

Bugungi axborotlar okimi uzluksiz kommunikasiya tarmoqlaridan uzatilastgan bir davrda xavfsizlikni ta'miplash, xatarlar, salbiy oqibatlarining oldini olish mas'uliyatli vazifadir. Shuning uchun mamlakatimiz aholisining turli qatlamlarida mafkuraviy immunitetni shakllantirishning ahamiyatini aloxida ta'kidlash mumkin. Ota-ona madaniy saviyasiping yukori bo'lishi ma'naviyati yuksak, ma'rifatli, iste'dodli, komil farzandlarini voyaga yetkazishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Vatan ravnaqiga munosib hissa qo'sha oladigan, ijtimoiy ongi shakllangan, milliy gururi baland, oilaparvar, millati, xalki va ona Vatanini ko'z qarochigidek e'zozlashga kodir farzaidlar bolalik yillarida avvalo oila muhitida munosib tarbiya olgan bo'ladilar. Ota va ona farzandlar uchun hamisha o'rnak va namuna timsollaridir.

Bolalarni ma'naviy-axlokiy tarbiyalashda oila mafkurasi, ma'naviyati dolzarb ahamiyatga ega. Oila muqaddas, bolalarning tarbiyasi, ota-ona vazifasi, oila boshliqlariga itoat, yuksak ehtirom ko'rsatish esa farzandlar burchidir. Xalqimizning ma'naviy, madaniyatiii rivojlantirish jamiyatga davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan vazifa bo'lib, unda oila ma'naviyatini yuksaltirish muhim rol o'ynaydi.

Turli mafkuraviy kurashlar avj olgan hozirgi davr ota-onalardan turli buzgunchi oqimlar bolani o'z girdobiga tortmasligi uchun bola tarbiyasida hushyor va sergak turishni takozo etadi. Ba'zi ota-onalarimiz, pedagog murabbiylarimizning loqaydligi begamligi hakida hadis-shariflarda ham eslatilgan: «Kishining o'z kara-mogidagi kimsalarga beparvo bo'lishi uning gunohkor ekanligiga kifoyadir». E'tiborsizlik jamiyat uchun bora-bora katta ziyon keltiradi.

Globalashuv jarayonida mafkuraviy immunitetimiz kuchaysa, tashki axborotlar okimiga ta'sirchanlik kamayadi. Axborotlardan foydalanish madaniyatiga milliy tarbiya orkali erishish mumkin. Yoshlarning turli yot g'oyalarga berilib ketmasliklari uchun ularni ezgu g'oyalarga undash va bu g'oya ularning maslagiga aylanishiga erishmoq lozim. Goyaviy tarbiya samaradorligi eng

avvalo natija qanday bo'lishiga bogliq. Bu -O'zbekistoi yoshlari, fuqarolarida milliy istiqlol goyasining yuksak darajasini shakllantirishga yo'l ochadi.

So'nggi ikki asr oraligida ro'y bergan yirik ijtimoiy siyosiy o'zgarishlar dunyodagi ikki karama-qarshi kutblar kurashiga barham berilgan bo'lsa-da, xilma xil manfaatlarni ifoda etuvchi mafkuralar kurashi to'xtagani yo'q. Mafkuraviy munosabatlar maydonidagi tortishuvlardan ko'zlangan asosiy maqsad, inson ongini, tafakkurini va yoshlar qalbini egallashdir. Bu bilan esa muayyan mintaqa aholisi, ma'lum millat vakillariga ta'sir o'tkazib, fikr qaramligi, tafakkur qulliligi kabi illatlarni yoyib, okibatda ularga o'z iqtisodiy hamda siyosiy tazyikni o'tkazishdir. Inson qadr-qimmatiga putur yetkazadigan, uni ma'naviy tubanlikka tortadigan tashviqotlarni oldiii olish vazifasi muhim ahamiyat kasb etadi. Kasallikni davolagandan ko'ra oldini olgan osonrokdir deb bejiz aytilmagan. Shuning uchun mamlakatimizda yashayotgan har bir fukaro ozod va obod Vatan, erkin, farovon hayot barpo etish ekanligini to'la tushunib olishlari kerak.

Xulosa

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng o'ziga xos taraqqiyot va rivojlanish yo'lini bosib o'tmoqda va bugungi kunda jamiyatni ijtimoiy-ma'naviy yuksaltirish, oilaviy munosabatlarni jamiyatda tutgan o'rnini, mavqeyini mustahkamlash, sog'lom avlod tarbiyasiga ahamiyat berish asosiy vazifalardan bo'lib qolmoqda. Ijtimoiy munosabatlar jamiyatning tuzilishini vujudga keltiradi. Ijtimoiy munosabatlar ijtimoiy hayotni, ayniqsa oilaviy hayotni mohiyatini ifodalaydi. Oila esa odamlarning iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy munosabatlariga asoslangan ijtimoiy birlikdir. Oilaviy birlikda shaxslar o'rtasida axloqiy, psixologik, jismoniy va xo'jalik-maishiy aloqalar sodir bo'lib, ular hayotda va maqsadlarda umumiylikni vujudga keltiradi. Ota-onalar va bolalar har taraflama

jipslashgan oila birligini tashkil etadi. Ular o'rtasida juda yaqin oilaviy munosabatlar mavjud bo'ladi. Oila nikoh, uning natijasida er-xotin munosablari, so'ngra farzandlardan tashkil topadi. Farzandlar tarbiyasi esa ota-onaga bog'liq bo'ladi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, oilaviy munosabatlarni mazmun-mohiyatini to'g'ri anglash va o'rganish, har bir ijtimoiy ishchi kasbi bilan shug'ullanuvchi xodimning asosiy vazifasi deb qaralishini taqazo etadi. Ayniqsa, oilada bolalar tarbiyasi bosh vazifa deb qaralishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shundan kelib chiqib, ushbu tadqiqot ishi "Oilada zo'ravonlik holatlarini oldini olishda ijtimoiy ish amaliyoti" (mahalla misolida) mavzusida yoritish bugungi kunning dolzarb mavzusi sifatida tanlandi, aniq reja asosida yoritildi. Tadqiqot ishida kirish, mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalari, tadqiqotning uslub va yo'llari, ilmiy faraz aks etgan bo'lib, birinchi bobda mahalla tizimida oilaviy munosabatlar madaniyatining ilmiy-nazariy asoslari, oilaviy munosabatlar tushunchasi, mohiyati va vazifalari, mahalla faoliyatida ijtimoiy xususiyatlar yoritildi.

Ikkinchi bobda esa oilada barkamol avlodni tarbiyalashning asosiy mezonlari, oilada zo'ravonlik holatlarini oldini olishning yo'llari va bunda mahallaning o'rni asosiy maqsad qilib belgilandi va tadqiqotning uslub va yo'llari, shunga ko'ra ilmiy faraz belgilandi. So'ngida esa xulosa, tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'ladi.

Ishni amalga oshirishda uning aniq joyi muhim bo'lib, obyektini belgilash, u yerdagi shart-sharoitlarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot ishining obyektini qilib Andijon viloyat mahalla jamg'armasi belgilandi. Bu yerdagi olib borilayotgan ishlar, rejalar asosidagi aniq yo'nalishlar uning metodologik tomonini yoritisa, amalga oshirilayotgan barcha ishlar, tadbirlar, oilaning mustahkamlanishida mahallaning vazifalari borasidagi qilinayotgan barcha ishlar, tadqiqotning amaliy jihatlarini yoritishda muhim omil bo'lib xizmat qildi. Bu borada tadqiqotning uslub va yo'llari belgilandi. Shu bilan birga o'zim ishlayotgan Andijon viloyat bolalar uyi misolida ham bir qancha kuzatishlarni olib bordim.

Bizning bolalar uyida 3 yoshgacha bo'lgan 60 nafar bola tarbiyalanadi. Boallar uyi direktori Sattorova Diloromxon 18 yildan beri shu dargohda rahbarlik qiladi. Men 8 yildan beri shu yerda katta tarbiyachi bo'lib ishlayman. U yerda olib borilayotgan amaliy ishlarim ushbu tadqiqot ishimga allaqancha turtki bo'lib xizmat qildi.

Ma'lumki, ajdodlarimizdan bizgacha yetib kelgan oilaviy munosabatlar madaniyatini farzandlar kamolotiga ta'siri haqidagi ma'naviy-axloqiy merosini hozirgi davr uchun ahamiyatini tahlil qilish zarur bo'ladi. Shunga ko'ra oila madaniyatining hozirgi davrdagi o'ziga xos xususiyatlarini nazariy jihatdan tadbiq etish muhimdir. Oilada farzandlar tarbiyasini shakllantirishda ma'naviy tarbiyaga e'tibor berish, bola tarbiyasiga zid ravishda zo'ravonlik holatlariga yo'l qo'ymaslik, farzandlarga tazyiq o'tkazmaslik va shu o'rinda mahallaning ta'siri ostida amalga oshirish bu borada ijtimoiy ish xodimining mahalladagi faoliyati asosiy maqsad qilib belgilandi.

Ma'lumki, ijtimoiy munosabatlar ijtimoiy hayotning mohiyatini ifodalaydi. Oila esa odamlarning tabiiy, iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy munosabatlariga asoslangan ijtimoiy birlikdir. Oilada er-xotin bilan birga bolalarning bo'lishi tipik oilani vujudga keltiradi. Ota-onalar va bolalar har taraflama jipslashgan oila birligini tashkil etadi. Shunga ko'ra, oilaviy munosabatlar tizimida tabiiy, axloqiy-estetik, psixologik munosabatlarni farqlash mumkin.

Oila munosabatlarida ruhiy holat muhimdir. Er-xotin o'rtasidagi sevgi-muhabbat hissiyoti, ota-onalik, farzandlik mehri, oilada farzand tarbiyasida asosiy omil hisoblanadi. O'zbek oilalarida serfarzandlik ulug'lanadi. Oilada shakllangan odob-axloq masalasiga Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov quyidagi fikrlarni bildiradi: - "Oilada, maktabda, mehnat jamoasida, mahallada olib boriladigan axloqiy tarbiya, mahallada olib boriladigan axloqiy tarbiya, jamoatchilik fikrining kuchi, ommaviy axborot vositalari, din peshvolarining obro'-e'tibori, mahallaning o'rni, hamma hammasi, har qanday harakatlarga qarshilikni shakllantirishga qaratilmog'i lozim".

Ushbu fikrlardan kelib chiqib, oilada farzand tarbiyasida zo'ravonlik holatlarini kelib chiqishiga qarshi hatti-harakatlarni oldini olish borasida

mahallaning o'rnini ham alohida ta'kidlash zarur bo'ladi. Mahalla faolligi oila mustahkamligining tayanchi ekanligiga har bir kunimizning shioriga aylanib qolgan. "Bir bolaga yetti mahalla javobgar" degan xalq naqli o'z ichiga ko'p ma'noni qamrab olgan. Mahalla – oila hamkorligi, yaqin qo'shnilarning tanbehlari barchasi faqat yaxshi niyatda bo'ladi va farzandlar tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ota-bobolarimiz bolaga hech qachon do'q-po'pisa qilmaganlar, zo'ravonlik ishlatmaganlar. Ohista shirin ovoz bilan "Yomon bo'ladi" degan birgina ibora bilan tarbiyaviy o'g'itlarni singdirganlar, zo'ravonlik maqsadida muomala qilmaganlar.

Ota-onalarning oiladagi, ayniqsa farzandlar ko'z o'ngidagi ahilligi, mahalladagi katta yoshdagi kishilarning kichiklarga g'amxo'rlik munosabati, oilaviy tarbiyani asosini tashkil etadi. Bu ahillik munosabati har bir oilaga o'z ta'sirini o'tkaza oladi. Farzandlar buni ta'sirini sezgan holda munosabatini bildiradilar. Orqalarida aniq ta'sir etuvchi kuch borligiga ishonadilar va shu zaylda faoliyat ko'rsatadilar.

Xulosa qilib aytganda oila davrasida, mahallada ota-onaning ijobiy fazilat va munosabatlari mahalla ahlining jipsligi, bolalrning to'g'ri tarbiyalanishini zaruriy shartidir. Bu boradagi oiladagi nizoli vaziyatlarni oldini olish, oilaning moddiy ahvoli, ma'naviy sifatlariga e'tibor berish, fuqarolik yig'ini raislari, xotin-qizlar, komissiyalari mahalla faollarining pedagogik-psixologik bilimlari va tajribalariga bog'liqdir. Bugungi jamiyatimizning yadrosi sanalmish, oilalarni butunligini saqlash, farzandlar tarbiyasini, sog'lom avlod tarbiyasining asosiy mezoni bo'lmish ma'naviy tarbiyani tashkil etish faqat ota-onalarni burchi bo'libgina qolmay, balki keng jamoatchilikning asosiy vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent 2008 y.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari, taraqqiyot kafolatlari. T., "O'zbekiston" 1997
3. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T., "O'zbekiston" 1996 y.
4. I.A.Karimov «Istiqlol yo'li, muammolar va rejalar» Toshkent, 1992 y.
5. I.A.Karimov «Iqtisodiy islohot, ma'suliyatli bosqich» Toshkent. 1994.
6. Karimov I. A. Barkamol avlod orzusi. Toshkent. 1999 y.
7. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. Toshkent 2008 y.
8. Feldshteyn D.I. Psixologiya vospitaniya podrostka. - M.: Znaniye, 1978.
8. Olimot ul – Banaoit «Muoshariat odobi» Toshkent, 1991 yil.
9. X.Uzoqov, E.G'oziyev, A.Tojiyev «Oila etikasi va psixologiyasi» Toshkent, 1992 yil.
- 10.Sh.Shayxova, K.Nazarov «Umuminsoniy qadriyatlar va ma'naviy kamolot» Toshkent, 1992 yil.
- 11.A.To'xtasinov, N.Rahimov «Nikoh, oila, jamiyat» Toshkent, 1995 yil.
- 12.M.O.Inomova «Farzand-nihol, ota-ona-bog'bon» Toshkent, 1993 yil.
- 13.Mahmudov R. Olimot ul-Banoit «Muoshariat odobi» Toshkent, 1991 yil.
- 14.Maxmudov R. "Huquq va madaniyat". T., "O'zbekiston" 1994
- 15.Xolmatova M. "Oilaviy munosabatlar madaniyati va sog'lom avlod tarbiyasi". T., "O'zbekiston" 2000
- 16."Istiqlol davrida oila qadriyatlarining transformasiyalashuv jarayonlari". Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Mas'ul muharrirlar: M.Bekmurodov, I.Qirg'izov. Farg'ona 2007
- 17.Mannopov S. "Oila va oilaviy munosabatlar sosiologiyasi". Ma'ruzalar matni. (Ijtimoiy ish yo'nalishi uchun). Farg'ona 2007
- 18."Oila" jurnali. №2 son, Toshkent 2005 yil
- 19.Inoyatov M. "Oila, ijod, tarbiya va ma'naviyat" T., "Sharq" 2000 y.
20. Ubaydullayeva R.A. Mustakil O'zbekiston: ayol, oila va jamiyat. T.: Fan, 2006.

22. Filippova Yu.V. Psixologicheskiye osnovy raboty s semyey. Yaroslavl, 2003.
23. Shevchenko I.O., Shevchepko P.V. Bolshaya ssmya -kakaya ona? //J. Sociologicheskiye issledovaniya. - M., 2005, №1.
24. Shneyder L.B. Psixologiya semeynyx otnosheniy. -M.: Aprel-Press, Izd-vo EKSMO-Press, 2000.
25. Yakovlev A.M. Sosialnaya struktura obshestva. -M.: Ekzamen, 2003.
26. Xalkechev M.N. Rojdayemost i reproduktivnye ustanovki molodeji Karachayevo-Cherkessii//J. Sociologicheskiye issledovaniya. 2005, №8.